

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI



“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O'zbek filologiyasi fakulteti dekani
_____ dots. Musayev A
“ ” _____ 2010 y.

5141100-o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

Oybek ijodida Navoiy mavzusi

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Ergasheva Sh

Ilmiy rahbar: f.f.n dots v.b
Yu.Karimova

Taqrizchi: o'qit. Lutfullayev J

Ishni himoyaga tavsiya etaman dots.I. Ikromov.

(imzo)

BMI o'zbek adabiyoti kafedrası
yig'ilishining qarori bilan (Qaror №10 29.05.2010)
Himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri dots.I. Ikromov _____
(imzo)

Jizzax-2010

Mavzu: Oybek ijodida Navoiy mavzusi.

Reja.

Kirish.

I-bob Oybek-navoiyshunos olim .

(„Navoiy haqida”, „ Navoiyining tarjimai holi, “Xamsa”ning asosiy obrazlari”, „Navoiyning dunyoqarashi masalasiga doir”, „Cheksiz umr”, „Alisher Navoiy” kabi maqolalarida Navoiyning ilmiy dahosining yoritilishi.)

II-bob Oybek badiiyatida Navoiy.

(“Navoiy”, “Guli va Navoiy” dostonlarida, “Navoiy” romanida, “Bola Alisher” qissasida Navoiyning insoniy va ijodiy timsolining badiiy talqini.)

Xulosa.

A.Qodiriy nomidagi Jizzax DPI o'zbek
filologiyasi fakulteti IV bosqich
bitiruvchisi Ergasheva Shahnozaning
“Oybek ijodida Navoiy mavzusi”
mavzusidagi BMI ga raxbar

Xulosasi.

“... Oybek XX asr adabiyotida butun bir davr, muhim bir bosqich... Bu davir 30-yillarning oxiri va 40-50-60- yillardan iborat. Oybek mana shu davr ichida tinimsiz ravishda izlandi, ishladi va adabiyotimiz taraqqiyoti yo'lida yirik- yirik asarlar bitdi”-deya Oybekning sermahsul ijodiga haqli baho bergan edi adabiyotshunos olim M.Qoshjonov.

Oybek ijodining go'zal qismini Navoiy mavzusi tashkil qiladi. Talaba Ergasheva Shahnoza BMIni “Oybek ijodida Navoiy mavzusi” deb belgilaganda u Oybekning ilm dunyosida yaratgan Navoiy timsolini va badiiyatida yaratgan Navoiy siymosini diqqat markazida tutadi. Oybek o'zining 30-40- yillarda va undan so'ng ham yaratgan bir qator ilmiy maqolalarida Navoiy poetikasi, asarlaridagi badiiy timsollar, yozuvchi tarjimai holi haqida ilm ahliga navoiyshunoslikning qorong'u nuqtalarini yoritib berganini bitiruvchi Oybekning navoiyshunoslikdagi ijodidan namunalar keltirib, tahlil etadi.

Navoiy timsolini badiiyatdagi talqinini ham hali o'zbek adabiyotida hech kim Oybekchalik tizimli yaratmaganligini bitiruvchi

g'oyat to'g'ri baholaydi. “Navoiy” romani, “Navoiy”, “Guli va Navaiy” poemasi, “Bola Alisher” asarlari misolida fikrini isbotlaydi.

BMI davomida Ergasheva Shahnoza o'zini fikrlovchi talaba, mustaqil tafakkur va mushohadaga qobiliyatli inson sifatida namoyon eta olgan.

Ergasheva Shahnoza “Oybek ijodida Navoiy mavzusi” mavzusidagi BMI tugallangan tadqiqot sifatida ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:_____ f.f.n.,dots. v/b Yu. Karimova.

A. Qodiriy nomidagi Jizzax DPI o`zbek
filologiyasi fakulteti IV kurs
bitiruvchisi Ergasheva Shahnozaning
“Oybek ijodida Navoiy mavzusi”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

Taqriz

Buyuk insonlar, ularning ijodi haqida biror fikr aytish g'oyatda mas'uliyatli. Chunki bunday kishilar haqida ko'plab insonlar fikr aytishgan. Ana shu fikrlardan o'tadigan hech bo'lmaganda shu buyuk siymo haqida xato fikr aytmay, o'z fikrlarini ifodalashning o'zi katta jasarat. Bitiruvchi talabamiz Ergasheva Shahnoza ana shunday katta jasoratga intildi. Shahnoza “Oybek ijodida Navoiy mavzusi” mavzusi bo'yicha bitiruv ishi yozgan. Zero, mavzu haqida, Oybek haqida, Oybek ijodida Navoiy siymosining aks etishi haqida bir qator adabiyotshunoslarimizning salmog'li asarlari, maqollari mavjud. E.Vohidov bir g'azalida “Har ko'ngil arzini aytur, neki bor imkonida” deganidek, Shahnoza singlimiz ham Oybek ijodida Navoiy siymosining qay tarzda ifodalanganligini imkoniyati darajasida yoritib beradi. BMI kirish, ikki bob va xulosa qisimlaridan iborat. Ishning kirish qismida ishning maqsadi, vazifalari, metodologik asosi, ishning o'rganilganlik darajasi ishning dolzarbligi kabilar ochib berilgan. Oybekning Navoiy haqidagi ilmiy asarlari “Navoiy haqida”, “Navoiyning tarjimai holi”, “Xamsa”ning asosiy obrazlari” kabi maqolalari asosida “Oybek-noavoiyshunos olim” deb nomlangan birinchi bobini yoritib bergan. Ikkinchi bobda talaba Navoiy

siymosini Oybekning “Navoiy”, “Guli va Navoiy” dostonlari, “Navoiy” romani, “Bola Alisher” kabi badiiy asarlari orqali yoritishga harakat qilgan. Ishning xulosa qismida talaba umuman, Oybekning ilmiy va badiiy asarlarida Navoiy siymosi qanday ifoda etilganligi haqida xulosaviy fikr sifatida Oybek Navoiyni chuqur anglagan, uning ruhiyatini tushungan olim ekanligini ta’kidladi.

Men shuni aytishim mumkinki Navoiy haqida Oybek haqida bunday salmoqdor soʻzlar aytishi uchun talabadan ana shu siymolar ruhiyatini his qilishidek ma’suliyatli ish talab etiladi. Shahnoza shu ma’suliyatni his eta oldi. Ishda ayrim juziy kamchiliklar uchraydi, lekin bu ishning umumiy saviyasiga ta’sir qilmaydi. BMIning DAK talablari darajasida tayyorlangan deb hisoblayman. Ishni ijobiy boholash mumkun.

TAQRIZCHI:_____ oʻqituvchi, J. Lutfullayev.

Kirish.

„Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom bo'lishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan uyg'un ruvojlangan insonlar bo'lib XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkomol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz .

Bu buyuk vazifani amalga oshirish uchun xalqimizning fidokorona mehnati bilan topilgan salohiyatimiz va imkoniyatimiz bor, kuch- qudratimiz yetarli. Eng muhimi, ertangi kunga bo'lgan qat'iy ishonchimiz bizga mustahkam poydevor bolajak.”¹

Darhaqiqat, prezidentimiz ta'kidlaganidek xalqimizning fidokorona mehnati yuksak kelajagimiz garovidir.

Kelajakka qat'iy ishonch uyg'otuvchi omillardan biri esa bu adabiyotdir. Chunki, unda umuminsoniy tamoyillar birlashgan.

Bugungi adabiyotshunosligimizdagi umuminsoniy, umumbaxsh tamoyillardan biri shundaki, ko'p asirlik mumtoz adabiyotimizga yahlit bir jarayon sifatida qarash va uning barcha muhim fakt- hodisalarini holisona tahlil etish ustuvor jihatga aylanayotir.

Bugungi istiqlolimizni orziqib kutgan va shu yo'lda xalqimizga fidokorlik bilan xizmat qilgan adabiyotimizning atoqli nomoyondalari- Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom,

¹ Asasiy vazifamiz –vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirshdir .I.A.Karimov-Toshkent:„O'zbekiston”,2010—80 B

Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Ozod Sharafiddinov va Togʻay Murod ijodiy va adabiy – tanqidiy merosi hamisha yuksak maʼnaviyatimizning uzvi bir qismi boʻlib qoladi. Binobarin, uni sidqidildan oʻrganish maʼnaviy-estetik tafakkurimizni boyitiribgina qolmay, balki ona-tilimiz va adabiyotimizga boʻlgan mehrimizni ham benihoya oshiradi.

Tarixiy jarayon shuni koʻrsatadiki, soʻz sanʼatining hamma davr va hamma tuzimlari uchun birday dolzarb boʻlgan umumbashariy mammolar bor va manashu masalalar yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirilgan adabiyotning umuri boqiydir. Shu kabi umrboqiy adabiyot gavharlarini xalqqa etkaza olish esa chinakam jasorat hisoblanadi.

Oʻzbek xalqining fahrlansa arzigulik buyuk allomalari bisyor. Ularni oʻrganish va tadbiq qilish har bir davir uchun ahamiyatlidir.

Jumladan, buyuk soʻz sanʼatkori, ulugʻ mutasavvuf shoir va mutafakkir Alisher Navoiy eng avvalo oʻzining benazir shaxsiyati va ijodining favqulotda boy va rang-barangligi bilan ilmu fazil ahlini hamisha hayratga solib kelgan.

Navoiyning salkam olti asirlik asarlari bugun ham kishi dilini yayratadi, chunki ularda inson ruhiyatining hamma davrlarida ham birday qadirlanadigan holatlari aks ettirilgan. Prezidentimiz I. Karimov ham oʻzining “Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch” asarida Navoiyni “Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”-deb, bejizga yuksaklarga koʻtarmagan edi.

Xo'sh, jahon estetik tafakkurining yuksak bir cho'qqisi sanalgan Alisher Navoiy adabiy-estetik qarashlari silsilasida asosiy o'rin tutuvchi muhim muommolar nimalardan iborat va ular bugungi adabiy- tanqidiy jarayon, tafakkur rivojida qanday ahamiyat kasb etadi? Albatta, mavzuni keng yoritish uchun ko'plab jiddiy tadqiqotlar talab etiladi. Kezi kelganda, shuni alohida ta'kidlash joizki, ulug' shoir hayoti va ijodini o'rganish borasida adabiyotshunosligimizda erishilgan yutuqlar ozmuncha emas. Xususan, Navoiyshunosligimizning ta'mal toshlarini qo'yib ketgan Oybek va Shayxzoda, S.Ayniy va G'afur G'ulomlardan boshlab, yirik adabiyotshunoslarimizdan Olim Sharafiddinov va Izzat Sulton, Hamid Sulaymon va Vohid Abdullayev, Parso Shamsiyev va Vohid Zohidov, Natan Mallayev, Abduqodir Hayitmetov, Aziz Qayumov, Botirxon Valixo'jayev, Alibek Rustamov, Fozila Sulaymonova va Suyma G'aniyeva kabi taniql allomalarimizning bu qutlug' mavzuni yoritishdagi fidoiylilik va jombozliklari tahsinga loyiqdir. Zero, Prezidentimiz ham bejizga quyidagi fikrlarini bildirmagan edi:

“Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Ona tiliga muhbbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda,

jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma`rifiy qurolga ega bo`lamiz.”²

Alisher Navoiyning quyidagi mashhur satirlar har bir vijdonli san`atkorning, har bir millatparvar ziyolining yuksak amoliga, hayotiy dasturiga aylanishi lozim degan o`y kechadi hayolimizdan .

Yuz lafo qilsa menga, bir qatla faryod aylamam.

Elga qilsa bir lafo, yuz qatla faryod aylaram.

Navoiyning qalb so`zlarini hayotining dasturiga aylantirgan, uni chuqur anglab yetgan vijdonli san`atkorlarimiz ko`plab topiladi. Ular adabiyotni anglay olgan insonlardir. Demak,Navoiyni anglash adabiyotni anglash demakdir.

Oybek mana shunday, Navoiyni anglay olgan san`atkorlardan biridir. Uning buyukligi shundaki, u nafaqat Navoiyni anglay oldi, balki boshqalarga ham bu siymoni anglatib, qalblariga joyladi. Shu sababdan, mening Bitiruv malakaviy ishimning mavzusi “Oybek ijodida “Navoiy” mavzusi”dir. Bu mavzu hamisha dolzarb hisoblangan. Mavzuni o`rganish asnosida adib ijodi mashaqqatlarini hamda murakkab sharoitda naqadar doizarb mavzu ustida ishlaganining guvohi bo`lamiz.

Oybek Navoiyni ham ilmiy, ham badiiy jihatdan shu qadar mahorat va bilim bilan talqin etdiki, natijada biz uni hech ikkilanmay “Navoiyni qayta kashf etgan adib” deyishimiz mumkin.

² I.Karimov “Yuksak ma`naviyat- yengilmas kuch”. Toshkent :”Ma`naviyat”/2008.

Mavzuni o`rganish ham tarixni, ham adabiyotni, ham davirni o`rganishni o`z ichiga oladi. Shu bilan birga ijodkor mashaqqatini anglash, qadrlash uchun ham ahamiyatlidir.

Oybek orzu qilgan chinakam erkinlik shamoliari yurtimizda esib, adibning muborak poyqadamlari gardidan bo`sa olayotganidan tabarruk yuz beshinchi bahorni qarshilayotgan donishmond adibning ijodiy merosiga bo`lgan e`tibordan ryhlari shod bo`lsa ajab emes.

Ma`lumki, Ikkinchi jaho urushi maydonlarida, noilojlik orqasida dushman qo`liga asr tushgan jangchilar sotqin deb hisoblangan. Ular dushman changalidan ozod qilinishlari bilanoq mamlakat ichkarisidagi lagerlarga jo`natilgan. Peshonasida shunday ko`rgulik yozilgan bir guruh o`zbek jangchilarining baxtiga ularning birida Oybekning “Navoiy” romani bo`lgan. Shu asr, unda tasvir etilgan voqealar, unda olg`a surilgan hikmatli jihatlar bu baxtsiz jangchilarning it azobida kechgan hayotlarini yorituvchi, ulardan o`n besh kuni yorug` bo`lgan “adolatli erta”ga umid uyg`otuvchi birdan bir dono malahatchi, najot yo`lini ko`rsatuvchi qiblanoma bo`lgan.

Bu asar o`z vaqtida ko`plab tillarga tarjima qilingan. Turli millatlarga mansub kitobxonlar ommasi asarni qizg`in va samimiy kutib oldi. Ulardan biri-arman o`quvchisi esa, “Nazarimda, siz katta muhabbat bilan tasvirlaganingiz Navoiy siymosiga ruhan yaqin bo`lsangiz kerak. Aks holda, buyuk o`zbek shoiri siymosini bu qadar yorqin va go`zal yarata olmagan bo`lardingiz”, deb yozgan edi. Kitobxonning bu so`zlarida katta haqiqat bor.

Demak,Oybekning Navoiy ijodiga bag`ishlangan ilmiy asarlari adabiyotshunosligimizning katta boyligi bo`lsa, endi u o`z badiiyati

orqali Navoiy siymosini jahon sahnasiga olib chiqdi, deyishimiz mumkin.

Adib Alisher Navoiy hazratlarini har bir o'zbekning dil-diliga yaqinlashtirishga qaratilgan ijodiy mehnatini amalga oshirdiki, bu uning buyuk jasoratidir. Bu jasorat mevalarini o'rganishga, tadqiq qilishga harakat qilgan tadqiqotchi, targ'ibotchilar ko'plab topiladi.

Shulardan biri Matyoqub Qo'shjonov bo'lib, u Oybek ijodiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlarini amalgam oshirdi.

Matyoqub Qo'shjonov "Shaxsiyati- ibrat, ijodi-saboq", "Buyuk Navoiy ulug' Oybek tasvirida", "Nega men Oybekni tanladim" kabi ilmiy maqolalar e'lon qildi. 1957-yilda "Oybek romanlarida xarakterlarni tasvirlash mahorati" mavzusida konditatlik dissertatsiyasini yozdi va u 1959-yilda kitob holida nashr etildi. Matyoqub Qo'shjonovning "Oybek mahorati" monografiyasi 1965-yilda chop etilib e'lon qilingan bo'lsa 1976-yilga kelib "Oybek" nomli kitobi keng kitobxonlar ommasiga taqdim etildi.

Bundan tashqari "Oybek romanlarida syujet va xarakter" ("Sharq yulduzi" 1957-yil 12-son), "Oybek romanlarida konflikt va xarakter" ("O'zbek adabiyoti masalalari" T:1959-yil) nomli bir qancha maqolalari ham e'lon qilindi. Oybekshunoslarimiz orasida yana bir buyuk ijodkorimiz bu Homil Yoqubovdir. U 1959-yilda "Oybek haqida monografiya", 1966-yilda "Adib mahorati" nomli kitoblarini chop ettirdi. Uning ko'plab maqolalari gazeta va jurnallarda birin-ketin berib borildi.

Bundan tashqari yana ko'plab ustoz ijodkorlarimiz, adabiyotshunoslarimiz bu mavzu ustida samarali mehnat qildilar.

Institutimizda ham ustozlar izidan borib Oybek ijodini o`rganayotgan magistor va talabalar ko`plab topiladi.

Quyidagi talabalar BMI ishlarini shu mavzu yuzasidan yozganlar:

H. Xolbo`tayeva “Badiiy portret yaratishda yozuvchi uslubi” (A.Qahhor, Oybek prozasi misolida) 2009-yil.

Ergasheva O. “Oybekning Navoiy romanida Navoiy shoir va davlat arbobi sifatida ” 2005-yil.

Nazarova Johonoy “Oybekning “Navoiy”romanini 8-sinifda o`tish uslubi” 2002-yil.

Magistorlik dissertatsiyalari:

Sh. Haydarov “Oybek asarlarining tili va uslubi” (Bolalik va Quyosh qoraymas misolida) 2006-yil.

Dilfuza Farsaxonova “Oybekning “Navoy” romani leksik qatlami”. 2006-yil.

Men ham o`z ishimni shu qatorga bir tajriba sifatida qo`shmoqchiman. Darhaqiqat, Navoiy bizning milliy madaniyatimiz, tarixiy xotiramizdir. Shunday davrlar bo`ldiki, xalqni milliy qadriyatlaridan, tarixiy xotirasidan mahrum qilishga urunishlar bo`ldi. Lekin Oybekday ziyoli insonlar borligi uchun xalq o`zligini yo`qotmadi. U xalq xotirasidan o`chib borayotgan Navoiyni xalqqa qaytarib berdi. Uning ilmiy asarlari, badiiyati durdonalari xalqimizning chinakkam yutug`i bo`ldi. Shunday ekan, bugungi osoyishta kunlarimiz uchun Oybek kabi zahmatkashlarimizning o`rni

beqiyosdir. Ularning merosini o'rganish bugungi kun va kelajak uchun zarur deb o'ylayman.

I bob. Oybek – navoiyshunos olim.

“Tarix so'qmoqlari izimdan cho'tir” degan edi u nurli va sermazmun umrining so'ngida yozgan sherlaridan birida. Aslida badiiy yo'sinda ifodalangan bu fikr asosida hayotiy haqiqat yotadi. Zero uning serzahmat hayoli va tafakkuri ilmiy va badiiy niyatlarini amalga oshirish maqsadida moziy so'qmoqlarini tinimsiz kezdi, o'zining savollariga javoblar izladi. Qarshisida uchragan har bir tarixiy zarrani o'z dunyoqarashi asisida tafakkur nuri bilan yoritdi, o'z aslari tadqiqotalri uchun keraklilarini saralab oldi.

Har bir yozuvchining yagona, nuri bitmas bir ustoz bo'ladi. Shu ustozdan olingan quvvat, adadsiz mehr, uning sehr sirlarini izlshga, o'rganishga chorlaydi. Oybek uchun Navoiy yana shunday ustoz bo'ladi. Maqolalardan birida e'tilishicha Oybek Navoiy ijodini 1928 – yildan o'rgana boshlagan. Bu sohiy mutafakkir haqidagi so'nggi maqtasi esa 1968-yilda bosilib chiqdi. Ana shu 40-yil oralig'ida Oybek tomonidan yozilgan maqolalar Navoiyshunoslik faning katta boyligini tashkil etadi.

Prof. E.E Berintelsdek sharq klassik adabiyotining bilimdoni maqolaloaridan birida “Agar men Oybek bilan tanishmaganimda Navoiy haqidagi, fikrlaridan bahramand bo'lmaganimda bu ulug' shoir haqidagi tadqiqotlarimizni yaratishim amrimahol edi” degani ma'lum.

Darxaqiqat Oybekning merosi ulkandir. Uuning tinimsiz ilmiy izlanishlari va badiiy tadakkurining sintezi o'laroq “Navoiy”

romani maydonga keldi. Romanda Temuriylar saltanatining Husayn Bayqaro hukmronlik qilgan davrini nafaqat badiiy balki chuqur ilmiy ruh bilan yoritgani singari, ilmiy tadqiqotlarida ham Oybek ilhom arg'umog'ining jilovini erkin qo'yadi va tadqiqotlarida ko'pdan ko'p yorqin badiiy mushohadalar bilan bezaydi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki Oybekning Navoiy haqidagi roman va dostonlariga ilmiy ishlaridagi fikrlar va hatto jumlar quyosh nuridek erkin va tabiiy singishib ketadilar.

Bu aksincha badiiy asarlaridagijuda ko'p tugunlar, jarayonlar, dastavval ilmiy ishlar doshqozonida toblanadi, ishlov beriladi va shundan so'ngina badiiy asar sahifalaridagi uzukka ko'z bo'lib tushadi.

Oybek tadqiqotlariga va shu tadqiqotlar uchun olib brogan tayyorgarlik variantlariga nazar tashlasak muallif faqat temuriylar davri adabiyotiva Navoiy ijodigagina oid materiallar yig'ish bilan kifoyalanmaganigini ko'ramiz. Ularda adabiy hayot bilan bir qatorda umuman tarix, iqtisod, etnografiya, davlatni boshqarish sistemasi, sug'orish va irrigatsiya, xalq hayoti shaxar tarixi va relyefi, ijtimoiy munosabatlar va hokozolarga oidmateriallar alohida o'rin ishg'ol qiladi. Bularning barchasi Oybekning doimo va muttasil ravishda juda katta niyatlar bilan yashaganini, ular adibi va olim Oybekning Navoiydan tashqari Beruniy,Temur, Bobur, Mashrab haqida yaratilgan va yaratilishi niyat qilib qo'yilgan asarlarga tayyorgarliklar va shular davri hayoti, ijodi haqidagi ilmiy ishlarni kor'inishisifatida baholana oladi. Oybek buyuk kishilarga hos bo'lgan tabiatan va tug'ma kamtar inson edi. U Navoiy haqida o'z vaqtida (30-yillarda)

turli hajmlardagi katta kichik tadqiqotlar yozib bitirgan. Bu uning ijodiyotining bir qismini tashkil qiladi holos.

Bugun o'ylab ko'rsangiz Oybek XX asr adabiyotida butun bir davr, muhim bir bosqich ekanligini anglaysiz. Bu davr 30-yillarning oxiri va 40-50-60 yillardan iborat. Oybek mana shu davr ichida tinimsiz ravishda izlandi, ishladi va ada biyotimiz taraqqiyoti yo'lida yirik-yirik asarlar bitdi. U yaratgan she'r va poemalar 3 ta roman va qissalar faqat o'sha davr adabiyotining yutug'I emas balki ijod tajribasi sifatida butun bir maktab sifatida ahakllangan ijodiy biografiya sifatida yoshlarga saboq bo'lib xizmat qilmoqda. Adib va olim Oybekning ijodiy labaratoriyasi shuni ko'rsatadiki u har bir ilmiky tadqiqopti uchun juda uzoq va katta tayyorgarlik ishlarini olib brogan. Yuzlab ilmidy adabiyotlar bilan yaqindan tanishib chiqqan, zarur bo'lganlaridan ko'chirmalar olgan. Zarifaxonim Saidnosirovaning ma'lumot berishicha Oybek ba'zan ilmiy ish yozayotganida huddi badiiy aasar yozayotganidek 3-4 kunlab o[‘z o‘rnidan qo‘zg‘almay ishlagan [paytlari bo‘lgan . Man shu mehnatalrining evaziga o‘zbek adabiyotshunosligiga qo‘shgan katta hissasi va badiiy adabiyotdagi hizmatlari uchun 1943-yilda O‘zbekiston fanlar akademiyasining eng kuchli haq birinchi saylovidayoq u akademiyaning haqiqiy a‘zosi qilib saylangan. Ilmiy salaohiyatning kengligi va chuqurligi uchun uzoq yillar davomida akadimiyaning presidium a‘zosi bo‘ldi va ijtimoiy fanlar bo‘limiga rahbalik qildi.

Oybek tadqiqotlari Navoiy hayoti va ijodiyotining deyarli barcha masalalarini qamrab oladi. U Navoiyning tarjimai holi,

g'azaliyoti, dostonlari va ilmiy faoliyati ijodining halqchiligi va gumanizmi, mahorati va tili, umuman davra va adabiy muhiti singari masallar haqida tadqiqotlar yaratdi 40-yillar ohirida u Navoiy ijodining katta bilimdoni sifatida keng tanildi.

Yubilaey munosabati bilan 1948-yil may oyining o'zida uning Navoiy haqidagi maqolalari o'ndan ortiq tillarda 30 ta va undan ortiq gazeta va jurnallarda e'lon qilinganligi bu fikrni tasdiqlaydi. Bulardan tashqari Oybek adabiyotshunos olimlarning managrafiya va kitoblariga yozgan taqrizlari bilan klassik adabiyot tadqiqotchilarning peshqadam vakili sifatida ham ko'z oldimizdanamoyon bo'ladi.

Oybek Navoiy haqidagi mavjud ishlari bilan kifoyalanib qolmay tinimsiz izlanishda davom etgan. Biz uning shaxsiy arhividagi hujjatlardan ijodiy niyatlarni to'liq payqab olamiz. Masalan uning 1957-yilda bajargan ishlari bo'yicha O'zTA hisobotida aytilishicha 1958- yil Navoiy haqidagi 10 bosma toboqdan iborat monagrafiya yozib tugatishni habar beradi. Lekin betoblik uning bu ezgu niyatini amalga oshirishga imkon bermadi XX asr o'zbek adabiyoti tarixida Oybek ijodiyoti butun bir davrni tashkil etadi, deganda, also mubolag'a qilmagan edik. Adib ijodining naqadar sermahsul va ekanligini ko'plab zamondoshlari havas va hayrat bilan etirof etishadi. Jumladan, Abdulla Qahhorbu haqiqatni o'ziga hos tarzda shunday takidlaydi: "Yozuvchining umri yil bilan o'lchanmaydi ijodiy faoliyatning samarasi bilan olchanadi. Oybek 400 yilga teng keladigan ijodini bir lahzasini ham samarasiz o'tkazgani yo'q. oybek bu jihatda hozirgi va kelajak adabiy avlod qarshisida ustoz bo'lib gavdalanadi"

Darhaqiqat o'zbek realistik prozasi taraqqiyotida ham, yangi davr o'zbek she'riyati va dostonnavisligi takomilida ham Oybek ijodida mavqeyi g'oyat sarbalanddir. Zabardast adibimiz Oybek tengdoshlari ko'p qirrali iste'dod sohibi edi. Boshqa jarayonlardagi kabi tanqidchilik bu buyuk istedod egasining ilmiy va adabiy tanqidiy me'rosining kattagina qismini, shubhasiz uning buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyga bag'ishlangan va butun umri mobaynida izchil davom etgan tadqiqotlari tashkil etadi. Binobarn, Oybekning Navoiy ijodi va shaxsini o'rganishdagi ilmiy – adabiy faoliyati shu qadar izchil va mufassal, shu qadar ko'lamli va ahamiyatli, uni haqli ravishda adabiyotshunosligimizning ta'mal toshini qo'yganlardan biri deb, faxr bilan tilga olamiz. Mamnuniyat bilan aytish mumkinki, so'nggi yillarda, ayniqsa, istiqlol sharofati bilan Alisher Navoiy kabi buyuk tarixiy siymolarimizning Hayoti va ijodiy faoliyati ilmiy asosda atroflicha o'rganilmoqda, Lekin sobiq sho'ro davrida, xususan 30-40-yillarda ham xukmron mafkuraning tayziqi o'laroq, mumtoz adabiyotimiz tarixiga, hatto Navoiydek daho san'atkorlar ijodi va dunyoqarashiga nisbatan ham noholis va ziddiyatli fikrlar ustuvorlik qilar edi.

O'zbekning 30-yillarda yaratilgan, Navoiy adabiy merosini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlari anashu jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Ular bamisoli tafakkur yog'dulari kabi eng avvalo ulkan bir tarixiy haqiqatni ilmiy asosda yoritilganligi bilan diqqatga molik.

O'z maqola va tadqiqotlarida Oybek Navoiy ijodini va shaxsini keng tekshiradi. Oybek shu bilan birga mustahkam ilmiy zaminda

turib Navoiy dunyoqarashidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklarga doimo alohida e'tibor beradi. Chunonchi, Navoiyda "Xudo va dunyoning mohiyati" masalasi xususidagi qarashlar bir xil emas. U o'zining qator g'oyalarini ilgari surish uchun ba'zi o'rinlarda din emas, so'fizm tomonidan bo'ladi, lekin gohi o'rinlarda bir masala ustida uning ikki xil qarashlari bor. Jumladan, uning ijodida xudoni jahonning immonenti sifatida (bu so'fiylar ta'limotiga ko'ra) tan olish bilan bir qatorda, ba'zi o'rinlarda xudoning dunyoning tashqarisida turuvchi allaqanday ilohiy kuch sifatida tan olib, uni "antologik isbot etishga urinish" (bu endi musulmon dinining ta'limotiga ko'ra) hollarni uchratamiz.

Demak, Oybek ta'kidicha Navoiyning xudoni bir xil qabul qilishi, ya'ni xudoni jahonning immonenti deb bilishi nuqtasida Navoiynmng so'fizmga munosabati va so'fizmning Navoiyga ta'siri nomoyon bo'ladi. Yuqoridagi bir masala xususidagi ikki xil qarashning, ziddiyatning sababini Oybek Navoiy yashab ijod etgan davrning ziddiyatlari bilan, shoirning o'z davri farzandi ekanligi bilan izohlaydi. Ammo Oybek kurashicha bu qarama-qarshilikdan qat'iy nazar "xudo va dunyoning mohiyati" masalasini Navoiy, asosan, so'fiyona ta'limot bo'yicha tushinga: "go'yo xudo allaqanday adabiy, yetuk go'zal bir mohiyatdir. Dunyo bir vaqtlar xudoning o'z ichida sukunat vazifasida turgan, ya'ni dunyo, ta'bir joiz bo'lsa xudoning mazmunini tashkil etgan bo'ladi. So'ngra dunyo cheksiz va hadsiz "oyina"lar sifatida zohir bo'lib, xudoning go'zalligini o'zida aks ettiradi. Lekin, masala shundaki, Navoiyda xudo bilan dunyo ayrim-ayrim hollarda mavjud emasdir. "Navoiyning anglashicha, xudo-

dunyodir. Shunday qilib, Navoiyda dunyoning xorijida turgan xudo tushunchasi yo'qoladi, shuning bilan xudo va dunyo dializmi bartaraf qilinadi. Bu pantestik bir qarashdir.”

Navoiyning yuqoridagi qarashlari XVII asr G'arb faylasufi Spinozaning xuddi shu masala xususidagi qarashlariga juda yaqindir degan xulosaga keladi. Oybek “Dunyoda mavjud bo'lgan barcha narsa xudoda mavjuddir va xudosiz hech nimaning na mavjud bo'lishi, na fikrlanishi mumkin emas”, deb yozgan edi Spinoza.

XV asr sharq mutafakkiri Navoiy bilan XVII asr G'arb faylasufi Spinoza qarashlaridagi yaqinlik o'z-o'zidan ko'rinib turadi. Oybek Navoiy va Spinoza fikrlaridagi yaqinlik bilan bir qatorda ulardagi farqni ham ko'rsatadi.”Faylasuf va materialist Spinozada xudo o'zining butun ilohiy sifatlarini tamoman yo'qotadi. Unda xudo degan bir nomgina qoladi. Faylasuf singari mantiqiy tushunchalar qolipida fikr yuritishga emas, balki obrazlar bilan fikrlashga intilgan shoir Navoiyning qarashlaricha, xudo o'zining xudolik sifatlarini tomoman yo'qotmaydi. U hali ham tabiat ichida jonli va mukammal go'zal bir kuch sifatida o'zini ko'rsatib turadi.”

Oybek o'zining deyarli barcha tadqiqotlarida Navoiy ijodining g'oyaviyligi masalasiga alohida e'tibor beradi.Oybek xulosasiga ko'ra, Navoiy asarlarida g'oyaning asosan, birinchi o'rinda chiqarishi natijasida faqat uning o'z ijodidagina emas, umuman o'zbek adabiyotida yangi davr maydonga keldi.Bunga erishuvning sababini Oybek minglab yillar davomida bir ko'p xalqlar tomonidan chuqur o'zlashtirilishida deb bildi.Shuning uchun ham Oybek Navoiyni dohiy san'atkor sifatida o'rganar ekan,bu adibning tarix maydoniga

kelishadi va asarlarining yaratilishidagi asosiy sabablarining ijtimoiy ildizlarini izladi. Oybek Navoiyning o'zini tekshirishdan oldin, u yashab ijod etgan davr va tuzumni tekshirdi va Navoiydek dahoni ham hamma buyuk daholar singari o'z davri va xalqi yaratdi, degan xulosaga keladi. Asarlarining yaratilish sabablarini ham Oybek san'atkorning asosan yana shu davr va xalq bilan chambarchas aloqada bo'lishi hamda jamiyatning yeng ilg'or g'oyalarini o'zida aks ettirishi va jahonning eng ilg'or madaniyatini o'zlashtira olishida deb biladi. Natijada Navoiy "xamsa"sini "bir ko'p qadimiy madaniyatlarning oddiy va falsafiy fikrining shoirona sintezidir" deb baholadi.

Oybek Navoiy ijodida obyektiv yondashadi, undagi chekinishlarni ham ko'rsatadi.

Navoiyning qator ishqiy she'rlarida shoirning sevgisi, yorning obrazi reallashmaydi. U mavhum bir g'oya bo'lib qolaveradi.

Demak, Oybekning izlanishlari, fikr va mulohazalari ana shunday keng qamrovli. Bu ishlarning mohiyatini aniq anglash uchun chuqur zehn bilan asarlarni o'rganish lozim bo'ladi.

O'zbekning navoyishunoslikka qo'ygan ilmiy ishlari o'zining ana shunday keng qamrovi muammoli ekanligi bilan ajralib turadi. Oybek ilmiy mushohadadan badiiy mushoxadaga o'tgan ilmiy qarashlarini badiiy jihatdan sentezlagan ilmiy zaminga asoslanib badiiy kashfiyot darajasiga ko'targan, Navoiy davri tarixi va Navoiy shaxsini yuksak darajada yoritib bergan olim – san'atkordir.

Uning Navoiyga bag'ishlagan ko'plab maqola va tadqiqotlari navoiyshunosligimiz xazinasidagi nodir javoxirlardir.

Oybekning Navoiy ijodi va hayotini o'rganish yo'lidagi ilmiy izlanishlarining samarasi bo'lgan bu nodir javoxirlarni ko'zdan kechirchach ekanmiz. Ularning o'zbek adabiytshunosligi uchun nechog'li ahamiyatli ekanligining guvohi bo'lamiz.

Men olimlarimiz, adabiytshunos, tadqiqotchilarimiz tomonidan yuqori baholangan bu asarlarni o'qib o'rganib chiqdim. Bu asarlar haqida fikr mulohazalarni ko'zdan kechirdim va bu haqda o'z tushunchamga ega bo'ldim.

O'z izlanishlarimni Oybekning "Navoiy" yodi va hayotiga bag'ishlangan ilmiy asarlarni izchil o'rganishdan boshladim.

Oybekning "Navoiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan ilk ilmiy tadqiqotlaridan biri "Navoiy haqida" deb nomlanadi.

Bu ilmiy asar 1936 yilda yozilgan, 236 betdan iborat. Oybek dastxati bilan asar grafikasida yozilgan qo'lyozma yozuvi arxivdagi 5-papkada saqlanadi. Qo'lyozma 1936 yilda tugallangan bo'lsada, 1937 yili noma'lum sabablarga ko'ra yo'qolgan. 1936 yildan buyon qayerda ekanligi noma'lum bo'lgan asar 1955 yil 28-mart kuni Porso Shamsiyev tomonidan Oybekka keltirib beriladi.

Qo'lyozma asliga ko'ra u "g'azaliyoti" deb nomlangan. Qo'lyozmadagi 135-136 betlar "Polmalar", 136-147 betlar "Nayratul – abror", 148-227 betlar "Farhod va Shirin", 228-238 betlar "Layli va Majnun" (tugallanmagan) qismlardan iborat.

Qo'lyozma ohirida raqamlanmagan asarning bir varaq reja bor. Men uni quyida aynan keltirib o'tmoqchiman:

1. Kirish (quqa)
2. Tug'ilish, ota-onasiga doir

- 3.Bolalik hayotiga doir ma'lumotlar
- 4.Muallimlari, maktablari, ilm, san'at va adabiyot bilan mashg'uloti
- 5.Yosh shoir. Zullisonayn. –“Navoiy” va “Foniy”
- 6.Til sohasida kurash. U davrda turkchilik va eronchilik tendensiyalari.
- 7.Navoiy Abulqosim Bobur saroyida.
- 8.Abu Sayit zamoni. Navoiy Samarqandda.
- 9.Navoiyning Xitorga qaytishi. Navoiy davlat arbobi. Xalq manfaatlarining ximoyachisi.
- 10.Navoiy ilm, san'at xomiysi.
- 11.Madaniy qurilish sohasida Navoiy faoliyati.
- 12.Navoiy “Hamsa” ijodchisi.
- 13.Tazkirachi guruxlarning Navoiyga qarshi intregallari. Navoiy Husayn Boyqaro.
- 14.Navoiy Astrabodda.
- 15.Navoiyning so'nggi yillardagi faoliyati va ijodiyoti.
- 16.Navoiyning o'limi.
- 17.So'nggi qism”.³

Ushbu rejadan ham ko'rinib turibdiki, sodda va aniq ma'lumotlar kiritilgan. Bu albatta bugungi kun o'quvchisi nigohida shunday, lekin 1930-1940 yillarni nazarda tutgan holda o'sha davr o'quvchisining saviyasini hisobga oladigan bo'lsak, maqoladagi har bir ma'lumot muhim va ahamiyatli ekanligini anglash qiyin emas.

³Oybek.Mukammal asarlar to'plami. 13-tom. O'zbekiston Fan nashryoti. T., 1979- yil. 460-461 B.

Shu jihatdan maqolada muallif fikri va qarashlari sodda va ayni vaqtda ilmiy jihatdan asoslangan holda ifodalangan.

Ushbu maqolada muallifning Navoiy dahosiga bo'lgan munosabati yaqqol namoyon bo'ladi.

Oybek buyuk shoir Navoiyning adabiy ijodi san'at, ilm, fanga qilgan xizmati, siyosiy faoliyati, qisqacha aytganda bu ulug' shaxsiyatning ijodiyoti – madaniy o'rni va roli temuriylar davrida O'rta Osiyo tarixi, balki, butun musulmon sharqining tarixiy-madaniy vaziyati bilan anglashiladi, - deb hisoblaydi. Shu sababdan avvalo Mir Alisher Navoiyning har tomonlama boy ijodini va bu ijodni sug'organ adabiy fikrni, manbalarni to'la o'rganish uchun u yashagan tarixiy sharoitni oydinlashtirib oladi.

Darhaqiqat, Navoiyning shexriy ijodi, falsafiy, axloqiy qarashli ma'lum tarixiy davrning mahsulidir. Maqolada tarixiy davr faktik misollar orqali ochib beriladi va XV asr badiiy adabiyotini yuksak bosqichga ko'targan, u adabiyotning yuksalish tendensiyasiga yakun yasagan buyuk shoir esa Alisher Navoiy degan fikr yetakchilik qiladi. Bu fikr barcha ilmiy izlanishlar davqomida yanada yorqin ochilib boriladi. Har bir asar o'zining mana shunday keng qamrovligi bilan, hamda Navoiy dahosiga cheksiz hurmat xissi bilan to'lib toshganligi bilanda ahamiyatlidir.

Keyingi ilmiy izlanishlarini o'rganish asnosida mana shunday samimiy mulohazalarning guvohi bo'lamiz. Asarlardagi o'ziga xoslik, shu mavzuda yozilgan boshqa ko'plab asarlardan ajralib turishiga ishonch hosil qilamiz. Oybekning keyingi ilmiy izlanishi Navoiyning hayoti va faoliyatiga yana bir bor chuqurroq

yondashishga bag'ishlanadi. Bu ilmiy maqola "Navoiyning hayoti va faoliyati haqida" deb nomlanadi. Oybek⁵ bu asarida quruq madhiyadan, asarlarni sanab chiqishdan nariga o'tmay kelayotgan ba'zi maqolalardan farqli o'laroq Navoiy haqidagi ma'lumotlarnimufassalroq berishga intiladi. Lekin, shu bilan barobar, buni hali "xomaki ish", "birinchi tajriba" ekanligini ham inkor qilmagan. Maqolada Alisher Navoiyning bolaligi, oilasi, uning yaqinlari davr va uning faoliyati haqida "Ravzatus – safo", "Xabibus suyar", "Boburnoma", "Bodayi ul – vaqoiy" va boshqa shu kabi asarlardan foydalanib, ishonchli ma'lumotlar beradi. Quyida bu ilmiy asarda berilgan Navoiy haqidagi birmuncha muhim ma'lumotlarga to'xtalib o'tmoqchiman. "Mir Alisher Hirot shahrida to'g'ildi. Oilasi u zamonning aristokrat guruxiga mansub edi. Bu oila temuriylar xonadoni, Temurning o'g'li Umarshayx avlodi bilan yaqin aloqada bo'lgan. Alisherning otasi kichkina Bahodir Temur avlodidan bo'lgan va Xurosonda hukm surgan Sulton Abulqosim Boburning saroyida katta mavqeyi ishg'ol etgandir."⁴ Maqoladagi bu kabi ma'lumotlarga quruq sanab chiqish deb emas, balki omi xalqning Navoiy haqidagi bilim va ko'nikmalari, tasavvurlarini kengaytirish uchun nihoyatda muhim ma'lumotlar sifatida qarashimiz o'rinli bo'ladi. Navoiyning tahsili va Hirotidan Samarqandga jo'nashini esa quyidagicha dalillab, bugungi kun o'quvchisi uchun ham muhim bo'lgan fikrlarni bildiradi. "Navoiy ham "Majolisun-nafois" asarida Samarqandga taxsil uchun borganini so'zlaydi. "Ravzatul safoda" shunday deyiladi: "Abu Sayit Sultonning zamonida Xuroson dorul

⁴ Alisher Navoiy. "Majolisun – nafois" Ma`rifat. T., 1996, 49-B.

saltanati va borib bir necha kun iqbol oshyon oston mulozamatida o'tkardi. Ammo o'zining holatiga yaarasha rioyat va tarbiya topa olmadi. Shul vaj bilan Xurosondin bexishmonand Samarqandga borib, Xo'ja Jaloliddin Fayzullox Abullayzi xonaqoxiga turdi va avqotini aksarin kutub mutolasiga masruf tutub, goxo darvish Muhammad Tarxon, Ahmad Xoji bilakim, Movaraunnahr soxib ixtiyori erdilar. O'qtulof buyurdi”⁵.

Bundan Oybek har xolda Mir Alisherning Xirotdan Samarqandga jo'nashini bir quvilish kabi tasavvur etish to'g'ri bo'lsa kerak degan fikrga keladi. Uning davlat arbobi sifatidagi faoliyatini ham tarixiy faktlarga asoslanib keltirib o'tadi: “Sulton Husayn saroyida Mir Alisherning vazifasi avvalo muhrdorlikdan boshlangan. “Ul Xazrati ulug' muxrin Mir Alisher muxofazati uxdasiga topshirdi” (“Razzatus – safo”).

1472 yilda Sulton Husayn Mir Alisherga rasmiy ravishda Bek – Amir unvonini berdi. 1487 yilda Sulton Husayn Mir Alisherni beklikdan tushurib, uni Astrabodga vali qilib belgilamakka qaror qildi. Astrabod hokimligi vazifasidan bo'shalgandan so'ng shoir Xirotda davlat ishlaridan chetda yashar edi. Doimo sevdigi ilm va adabiyot ila mashg'ul. Lekin xuroson mamlakatida yuz bergan muhim qorishiqalar uni yana siyosiy faoliyatga kelishga majbur qildi. 1501 yil 3 yanvarda yakshanba kuni Mir Alisher vafot etdi.”⁶ Oybek Navoiyning ushbu mazmunli hayot yo'lida xalqning qalbidan naqadar chuqur olganini, bu xalq uchun shoirdan ajralish qanchalik og'ir

⁵ Oybek. Tanlangan asarlar to'plami. 13-tom. T., Fan nashriyoti. 140-B.

⁶ Oybek. Tanlangan asarlar to'plami. 13-tom. T., Fan nashriyoti. 109-B.

jidolik ekanini dafn marosimi tasviri orqali ko'rsatib beradi: "buyuk shoirning o'limi xabari butun shaharga darxol yoyilmishdi. Butun shahar xalqi unga motom tutdi. Dafn marosimi katta tantana bilan bajarildi. Podshoh, sayidlar, shayhlar, olimlar va ko'p xalq bilan janoza o'qilib, Mir Alisher o'zi qurdirgan jomega dafn etildi. O'limining yettinchi kuni sonsiz xalq "xavzi moxiyon" degan joyga yig'ilib, diniy rasm-rusmlardan so'ng boy shoirlar, olimlar Alisher Navoiyning vafoti tarixi haqida muxtalif nazmlar so'yladilar. Juda ko'p marsiyalar, qasidalar, qitalar yozib o'qidilar."⁷

Oybek shu bilan birga Navoiyning xalq qalbidan chuqur o'rin olishining sabablaridan biri uning buyuk bunyodkorligidadir deb biladi.

Darhaqiqat, adib aytganidek, u go'zal saatlar bilan hayotni bezashga, o'zining inshooti bilan foydali ishlar filishga kirishdi. Navoiy Hirotda jomelar, madrasalar, hammomlar, kasalxona va boshqa xayriya uylari soldirdi. Navoiy tomonidan qurilgan xayriya muassasalar "Xalosiya" nomi bilan yuritilgan.

Shayboniyxon Movaraunnaxrni istilo qilib, Xurosonni ham temuriylar qo'lidan totib olishga qasd etgan vaqtlarda, Shayboniyxonga qarshi temuriylar qo'lidan kuchlarini birlashtirib kurashuv niyatida Xirotda, Sulton Husayn o'g'illari huzuriga kelgan Bobur shunday deb yozadi: "Alisherbekning maqbara va masjid jomenikim "Qadisiya" derlar, madrasasi va xonaqohnikim "xalosiya" va "Ixlosiya" derlar, hammom va doriyeshifosinikim, "Safoiya" va "Shifoiya" derlar, borini andak fursatda sayr qildim"⁸

⁷ Oybek. Tanlangan asarlar to'plami. XIII tom. T "Fan" nashriyoti 112-B.

⁸ Bobur. "Boburnoma". Toshkent. "G'.G'ulom" 1996- y. 127-B.

Demak, muallif fikrlarining naqadar haqiqat ekanligini tarixda isbodlab turibdi. Maqolada, Navoiyning faqat Hirotida emas, Xurosonning o'zga viloyatlarida ham ko'p xayriya uylari, ko'prik va rabotlar, xovuzlar bino qildirgani ham ma'lum qilib o'tilgan. Ma'lumki, Navoiyning madaniyat sohasida qilgan xizmatlari bu bilan cheklanmaydi.

Davlatda baland martabalarga ega bo'lgan Navoiy asrdoshlari – shoirlar, olimlar va san'at ahillariga moddiy va ma'naviy ko'magini ayamagan. Shu kabi jihatlarini inobatga olgan holda Oybek Navoiyni sa'nat va adabiyotning haqiqiy homiysi sifatida tasvirlaydi.

Asarda bu kabi muhim ilmiy tushunchalar izchil ifodalanganining guvohi bo'lamiz. Shu bilan birga Mir Alisher hayotining boy va asl mazmunini, muxtalif faoliyatining eng porloq jihatini tashkil etgan, real bir xazina kabi bizga qolgan, bizga va bizdan so'ngi nasllarga uning xotirasini yetkazgan narsa uning shoirligi, uning prozasi ekanligi ta'kidlangan.

“Shu o'rinda adib Navoiy she'riyatini “g'azaliyoti” nomli ilmiy izlanishlarining davomida o'rganadi va taxlil qiladi. “G'azaliyoti” nomli bu tadqiqotni o'rgana turib Oybekning Navoiy g'azallari yuzasidan ham naqadar chuqur bilimga ega ekanligining guvohi bo'lasiz”.

Ma'lumki, Navoiyning g'azallari “Chor devon” ida to'plangan. Shoir o'smirlikda, yigitlikda, o'rta yoshlarida va qarigan chog'larida yozgan lirik she'rlarini to'rt davrga ajratib, taxminan 20 ming baytdan iborat katta bir devon tuzib, har bir davrga ayrim ism bergan.

1) “G’aroyibus - sig’ar”, 2) “Navodirush - shabob”, 3) “Badoi ul - vasat”, 4) “Favoid ul - kibar”.

Navoiyning ushbu, yoshlikdan boshlab to umrining so’ngi kunlariga qadar yozgan lirik she’rlarini tashkil etgan “Chor devon” ning g’oya va badiiy shakli, tili va uslubi, tarixiy ahamiyati va boshqa jihatlaridan chuqur tadqiq etish ko’p yilga cho’ziladigan og’ir va muhim ishdir. Bu masalalar Oybek yashagan davrgacha na Sharqda, na G’arbda ilmiy tekshirish doirasiga kirgan emas edi. Navoiyning adabiy, siyosiy faoliyati haqida tarjimaiy hol harakteridagi monografiyalar, ayrim asarlari haqida maqolalar ko’pgina yozilganligini ham inkor qilib bo’lmaydi, badiiy mohiyatini ko’rsatgan ilmiy – tanqidiy asarlar yo’q edi, desak ham bo’ladi. Shuning uchun Oybekning Navoiy poyeziyasiga oid ilmiy tadqiqotlari bu yo’lda olib borilgan ilmiy izlanishlarining dastlabkilaridan edi, desak yanglishmagan bo’lamiz. Oybek o’z ilmiy izlanishlari davomida Navoiyning minglab g’azallarini ko’zdan kechirgandan so’ng, ular uchun eng harakterli kayfiyat ishqiy hissiyotlar ekanini aniqlaydi. Darhaqiqat hamma she’rlarida deyarli ishqiy bir uzilish, intizorlik tuyg’ulari tarannum etiladi. Shoirning asosiy ilhom manbai “ishq”dir. Bu mavzuda adib nihoyatda o’rinli fikrlar bildiradi.

“Ma’shuqa – yorning go’zalligi, uning shoirga baxsh etadigan taassurot, yorning zulmi, vafosizligi va xokazo she’riy to’qilma asosini tashkil etadi. Shoir har vaqt go’zalga, jononga murojaat qiladi. Hamma go’zallarda deyarli unga bir undov bor.

Murojaat qilingan obyekt ideal go'zallikka ega bo'lgan yordan boshqa narsa bo'la olmaydi. Shoir go'zaliga goh yalinadi, marhamat, shafqat tilaydi, goh uning vafosizligidan yig'laydi, goh shikoyat qiladi...”¹

Darhaqiqat, ishqning nashasi, visol onlarining ko'ngilga bergan farog'ati va xokazo tarannum qilinadi, ko'p vaqt ishqdan kelgan iztirob, alam tuyg'ulari kuylanadi, go'yo “abadiy ayriliq” shoirni yoridan ayirgan. Qovushmoq orzusi esa shoir uchun buyuk g'oyadir. Oybekning mana shunday nozik jixatlarnida ko'ra olganligi, uning Navoiy qalbiga naqadar yaqin qalb egasi ekanligidan dalolat beradi. Demak, Oybe g'azallarni nafaqat ilmiy jihatdan tahlil qiladi, balki qalban his etib o'z fikrlarini bildiradi. Keltirilgan misollar qanchalik go'zal bo'lsa, uning muloxazalarida shunchalik terandir.

Nomasi qo'ynumda baskim, iztrob aylar ko'ngul,
O'pgali chiqmoqqa go'yokim shitob aylar ko'ngul...
Gar quyoshtin qadrim ortiqraqdur shox oldida,
Zarradin yuz qatla uksukrak men ul moh oldida...”⁹

Oybek Navoiy yorining go'zalligini qanday ifodalashi, nimalarga e'tibor berishi xaqida ham to'xtalgan. Adib aytganidek, shoir extimol, hayotida sevgiga mubtalo bo'lgandir. Lekin, u she'rlarida faqat sof bir sevgining o'zini kuylamoqda, o'zi o'ylab to'qigan ideal bir go'zalning muhabbati alangasida yonayotganligini tarannum etmoqda. Shoir, ehtimol, umrida mayni totib ko'rmagandir. Lekin she'rida may va uning fazilatlarlari – muhabbat bilan bir qatorda – har vaqt nimanidir ifodalaydi. Ishqiy poeziyada aksar o'ylab to'qilgan

¹Oybek .Tanlangan asarlar to'plami. XIII tom. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 1979- yil. 300-B.

⁹ Alisher Navoiy. Bir paripaykarg'ami. “Sharq” nashriyoti – Toshkent – 2006-y. 54-58 - B.

ishq tuyg'ulari tasvir qilinadi. Bu hol o'sha davr poeziyasining uslubi uchun juda xarakterlidir.

Darhaqiqat poeziyada voqyelikdan xayollar dunyosiga ko'chgan shoir ishqiy lirikadan obrazni mumkin qadar hayotdan uzoqlashtirishga (fantastik figuralar) xayoliy obrazlar yaratishga tirishadi. Uslub uchun giperbolizm – mubolag'achilik xarakterli alomat bshlib qoladi. Mana, Navoiy yorining go'zalligini qanday ko'rsatadi:

O'sma birla qoshin ul mahvashki, rangin aylamish,
Ko'zi jallodi qilichig'a yoshil qin aylamish. (Yorning qoshi)
Karra-karra chu to'karsen yetar oyog'ingga soch
Karralarni chu ocharsen tushar quloch – quloch (Soch)
Tengri bermish ul pari paykrga andog' tor o0iz.
Kim kishi bilmaski, anda yo'qmidur yo bor og'iz. (Og'iz)¹⁰

Demak, Navoiy lirikasidagi har bir asarni butun bir sanat asari sifatida ko'rishimiz mumkin. Bu ilmiy asarda ham asosiy g'oya manashudir.

Oybekning Navoiy hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlangan keyingi tadqiqoti va maqollarida ham mana shunday sanatkورونا nigoh aks etganini ko'ramiz. Yillar izchilligida o'rganadigan bo'lsak Oybekning Navoiy ijodiga bag'ishlangan keyingi maqolasi “Navoiyning tarjimai holi” deb nomlanadi.

Maqola taxminan 1941-yilda yozilgan. Bu ilmiy tadqiqot “Navoiy gulshani” nomli to'plamida bosilgan. Tadqiqotning adib qalamiga mansub dasxati saqlanmagan. Oybek mazkur tadqiqotning

¹⁰ Alisher Navoiy. “G`azallar”. Toshkent “Ma`rifat”. 1999 - yil. 260-261- B.

dastlabki qismidagi parchalardan 1941-yili Navoiyning 500 yilik yubileyi munosabti bilan yozilgan maqolalardan birida foydalangan.

Oybek maqolani Navoiy tugʻilib ulgʻaygan muhit, uning ota-bobolari, davr haqidagi fikr bilan boshlaydi. Maqolada Navoiyning bolaligi juda yorqin va batafsil ifodalangan. Unda Navoiy yoshligidan, toʻrt yoshidan koʻpchilikni hayron foldirgani haqida quyidagi fikr bildirilgan:

“... Mehmonlardan biri. Bir munosabat bilan, soʻz orasiga bir bayt qstirib oʻtdi. Bola u baytni oʻz ichida qaytarishga tirishdi. Keyin, men ham bilaman deganday, haligi kishiga qarab oʻqidi:

Rindmu oshiqyemu jahon soʻzu joma chok

Bo davlati gʻami tu zi ayehi jahon chi bok*

Eshitganlar juda taajjublanib boshlarini tebratdilar”¹¹

Zoʻr ishtiyoq bilan yozilgan yuqoridagi parchadan koʻrinadiki, Oybek Navoiyni murgʻaklikdavridan qadrlagan, muhabbat qoʻygan. Mana shu muhabbatni boshqalarga ham singdirishga urungan.

Demak Navoiyning yoshlikdan shariyatga, adabiyotga, ilmga chanqoqligi malum, lekin uning necha yoshdan sher yoza boshlagani kishini yoyga soladi. Oybek ushbu maqolasida bu savolga quyidagicha javob beradi:

“Alisher necha yoshdan sher yoza boshlagani aniq yemas. Uning 47 ming misradan iborat kitta “chor devon”ning birinchi qismini tashkil etgan va yoshlikda yozilgan gʻazallariga qarab ham qay yoshda yozilganini aniqlash mumkin emas. Ammo baʼzi tarixiy

*Rindlarimiz, oshiqlarimiz, jahonni kuydiruvchi va yoqasi vayronlarimiz, Sening gʻami davlating bilan ekanmiz, jahonni oʻylashning ne hojati bor?

¹¹Oybek. Mukammal asarlar toʻplami. XIII tom. “Fan” nashriyoti. T.:– 1979 – yil. 101- B.

faktlar uning yosh bolaligidan sheʼrlari va bolalik ijodi boʻlgan asarlari xalqqa, hatto u zamonning dongdor shoirlariga manzur boʻlganligini ochiq koʻrsatadi.”¹²

Oybek oʻz fikrini, Lutfiyning Alisherga, uning gʻazaliga boʻlgan munosabati ifodasi bilan tasdiqlaydi.

Oybek Navoiyni nafaqat ijodkor sifatida, balki inson, davlat arbobi sifatida ham nihoyatda yuksak baxolaydi va uning barcha fazilatlarini ochib berishga harakat qiladi. Shu oʻrinda Navoiyni chinakam sanat homiysi, minglab sanatkornlarni yetishtirgan ijodkor sifatida ham tariflaydi. Uning har bir sohadagi faoliyatini zoʻr iftixor bilan tilga oladi.

Navoiyning “Xamsa”ni yaratishi haqidagi qimmatli maʼlumotlar maqolaning salmoqli qismini tashkil etadi.

Maqola oʻzbek xalqining ulugʻ shoiri Alisher Navoiyning 500 yilligi munosabatiga bagʻishlangan boʻlib, oʻzbek xalqi oʻzining ulugʻ farzandi tavalludini katta quvonch, zoʻr tantana bilan oʻtkazishga bir chaqiriq boʻldi. Zero, Navoiyning tavalludi tantanasi oʻzbek xalqining madaniyat tarixida juda manodor, juda ahamiyatli voqea edi. Oʻsha davrlarda ham halqimiz Navoiyni chuqurroq bilmoq, atroflicha tanimoq, adabiy soʻnmas, yuraklarga abadiy iliq, doli tasir qiluvchi goʻzal, shoirona asarlarini oʻqib, ulugʻ shoirninghayot yoʻli bilan tanishmoqqa qiziqadi. Shu maqsadda Oybek adabiy saviyasi uncha baland boʻlmagan oddiy oʻquvchilarni nazarda tutib, ulugʻ shoirning hayot yoʻli bilan ularni mufasalroq va soddaroq tanishtirib oʻtadi.

¹² Oybek. Navoiy gulshani. Toshkent “Fan” nashriyoti. 1960-yil. 28-B.

Oybek chin farzand sifatida o'z xalqining istagini bajarishdek masuliyatli vazifani zimmasiga oldi va uni alo darajada bajardi desak yanglishmagan bo'lamiz. Uning keyingi "Xamsaning asosiy obrazlar" nomli tadqiqoti ham manashu masuliyat zahirida yuzaga kelgan ilmiy asardir. Yuqoridagi "Navoiyning tarjimai holi" maqolasida Oybek "Xamsa"ning dostonlariga alohida-alohida to'xtalib, yorqin fikrlar bilan dostonlarni sodda va tushunarli ravishda izoxlagan bo'lsa, bu tadqiqot fikr-mulohazalar uzviy davom ettirilib, obrazlar talqiniga katta e'tibor qaratiladi. Tadqiqot 1935-1936-yillarda yozilgan deb taxmin qilinadi. Birinchi marta "Navoiy gulshani"da bosilgan.

Bizga ma'lumki besh dostonidan iborat "Xamsa" sharqda ko'p shoirlarning ideali bo'lsa-da uni yaratish sharafiga hamma ham muyassar bo'lavermagan. Mashhur "Xamsa"lar orasida Navoiyning "Xamsa"si alohida o'rin oladi. Bu mustaqil va poetik qimmatini bilan, e'tibori ila yolg'iz o'zbek adabiyotidagina emas butun turkiy xalqlar tarixida yaratilgan o'z sheriklari bilan bo'y o'lchashajak bir tarzidagi ko'rkam asardir.

Ko'plab olimlar, adabiyotshunoslar bu mashhur asarlarni o'rganganlar, tahlil etishga urunganlar. Asar murakkabliklarini yechishda va uni xalqqa yetkazishda ularning o'rni beqiyosdir. Ular orasida Oybekning faoliyati alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda Oybekning asar haqidagi qimmatli qikrlarining guvohi bo'lamiz.

Maqolada olim “Hayrat-ul abror” dostoniga to’liq to’xtalib o’tadi. So’ngra fikrini romantik poemalardagi qahramonlar talqini bilan davom ettiradi.

Oybek Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sabai Sayyor” kabi romantik poemalarining qahramonlari kishilikning yuksak intilishlarini tashigan yeng ideal timsollardan iborat deb biladi. Darhaqiqat, bu qahramonlar sherga kirmasdanoldinroq afsonalarda xalq fantaziyasi kuchi bilan yaralgan siymolardir.

Farhod va Majnun, Shirin va Layli ideal qahramonlar bo’lib, ular hayotiy bachkanalikga o’ralmaydilar, maishiy faktlarga ko’milmaydilar. Adib, ularning shoirona yorqinligiga, g’oyaviy ulug’vorligiga ko’lanka tashlovchi har nav tasodifiy chizg’ilar, tor maishiy sharoitlar shoir tomonidan ustalik bilan o’chirilishini va bu narsa obrazlarning jonli qiyofasiga, to’laqonli, zarar qilmagani holda uning badiiy to’laqonligini oshirishini takidlaydi. Oybek bu obrazlarga alohida – alohida, mufassal to’xtaladi. Fikrini misollar orqali isbot etadi. So’ngra maqolada “Saddi Iskandariy” “Xamsa”ning so’nggi dostoni haqida malumot beradi.

Oybek “Navoiy “Saddi Iskandariy”da ideal hukmdor obrazini yaratishga intiladi” – deydi. Iskandar obrazi Navoiycha qanday ekanligini ko’rsatib, doston va obrazlar haqida keng fikr bildiriladi. Maqolaning so’ngi qismida “Xamsa”ning naqadarqudratli asar ekanligini unda eng nodir, eng mohir sanatkorlarning obrazlari berilganligi va go’zal san’at obidalari tasvir etilganligini aytadi.

“Xamsa”ning so’ngida berilgan Navoiyning orzusini keltirib o’tish bilan maqola yakunlanadi.

Ki el nozirig’a nuzul aylasun

Ulus ko’ngli oni qabul ylasun.

Demak, bundan ko’rinadiki, Oybek orzusi ham Navoiy orzusiga hamohang, sof orzudir.

Ozod halqimiz ulug’ shoirlarimiz, olimlarimizning ijodiyotini, kechmish madaniyatining, badiiy fikrning buyuk sovg’asi kabi chuqur muhabbat bilan qabul qiladi, abadiy eslaydi, madaniyatimizning yangi g’alabalarga erishishda bu kabi durdonalardan qoydalanadi.

Shu ma’noda Oybekning keyingi “durdona” tadqiqoti Navoiyning dunyoqarashini o’rganishga qaratilgan bo’lib, “Navoiyning dunyoqarashi masalasiga doir” deb nomlanadi. Unda, Navoiyning jaxon adabiyotining o’lmas asarlarini yaratgan ulug’ sanatkorgina emas, ayni zamonda chuqur mutafakkir siymosida sifatda ham tasvirlanadi. Oybek Navoiyning butun ijodiyoti boy falsafiy mazmun bilan sug’orilganligi va uning ijodiyotining g’oya jixatdan shunday to’liqlikka ega bo’lishi uning asarlariga juda katta kuch bag’ishlashini hisobga olgan holda, shoirni badiiy fikrning dohiylari sirasiga qo’shadi. Maqolada Navoiyning asarlaridagi o’ziga xoslik, fikr yorqinligi go’zal tarzda ochib beriladi. Butun maqola davomida shoirning dunyo qarashi asarlari misolida ochib beradi.

Masalan, Oybek Navoiy uchun poeziyada eng muhim narsa nima degan savolga javob beradi: o’z izlanishlari davomida “Navoiy uchun

poeziyada eng muhim element shakl emas, balki mazmundir” degan hulosaga keladi. Fikrni quydagi misralar orqali isbotlaydi:

Nazmda ham asl anga mani durur,

Bo’lsin aning surati har nedurur.

Nazmki, mani anga marg’ub emas,

Ahli maoniy qoshida ho’b emas.

Demak Oybek poeziyada g’oya ustunligini tasdiqlovchi bu asosiy yo’nalishni olg’a surib, shoir adabiyotni fikriy kambag’allikdan qutqarishga, adabiyot toshqinini kishanlagan muzlarni parchalashga intilganligini isbotlaydi va shoirning butun ijodiyoti ana shu g’oyaga, yani asarning mazmundorlik talabiga bo’ysungan dostonlari, jo’shqin lirikasi g’oya va obraz boyligi bilan o’quvchini hayratga soladigan darajada deb biladi.

Oybek bu buyuk siymo har bir bayti orqali nima demoqchi ekanligini, nima istashiyu, orzu qilishini, oldiga qo’ygan maqsadini juda to’g’ri anglay olgan. Bundan malum bo’ladiki, Oybek Navoiyni chuqur o’rgangan, har bir asarga Navoiy nigohi bilan qaragan. Natijada Oybek o’rtadagi besh asrlik vaqt devorini qulatilishga muvofiq bo’ldi. Navoiyga bu qadar yaqinlik hammaaga ham nasib etavermaydi. Buning uchun Oybekka xos shijoat va qanoat lozim bo’ladi. Oybekning “Navoiyning “Majolisun - nafa’is” asari haqida” deb nomlangan maqolasi ha mana shunday mehnat mevasidir.

Ushbu maqola 1940-yil 17-dekabrda Alisher Navoiyning “Majolisun - nafa’is” kitobining 1940-yilda bosib chiqarilgan nashriga so’zboshi sifatida yozilgan. Maqola keyinchalik G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va sanat nashriyoti tomonidan nashr etilgan

“Navoiy gulshani” to’plamiga kiritilgan Oybek asarlar o’n to’mligining to’qqizinchi to’midan (1947-yil) ham o’rin olgan.

Ulug’ shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning boy va ko’p yoqlama ijodiyotida “Majolisun nafois” (“Nais majlislar”) alohida ahamiyatga egadir. Bu asar o’z tipi etiborila sharqda namunalari oz bo’lmagan “Tarkiratul - shuaro”lar jumlasiga kiradi. Oybek ushbu asarni chuqur o’rganib o’z fikr mulohg’azalarini maqolada bildiradi. Ilmiy va fikr muloxazalari o’quvchida aniq tushuncha xosil qiladi. Faktik malumotlardan so’ng ko’plab shorlar haqida qisman keltirib o’tilgan.

Maqola so’ngida Oybek ulug’ shoirning bu dohiyona sodada asari har bir o’quvchi tomonidan sevilib, takror- takror o’qilajagiga, uning boshqa bir ko’p adabiy, ilmiy- tarixiy maziylatlari o’z- o’zidan anglashilganiga chuqur ishonch bildiradi.

Navoiyning shu kabi boshqa asarlarining chuqur tadqiqi Oybekning “Alisher Navoiy” nomli maqolasida atroflicha berilgan. Bu maqola 1948-yilda yozilgan va “Sharq yulduzi” jurnalining 1948-yil 4-sonida bosilgan. Maqolada har bir davr uchun o’ta muhim bo’lgan masalalar ko’tarilgan hamda adabiy merosimizni o’rganish sohasidagi kamchiliklar, yutuqlar va takliflar haqida gapirilgan. Chunki, o’zbek xalqining qariyb ming yillik adabiyotini o’rganish boshqa olimlar qatorida Oybekning ham zimmsiga tushgan edi.

O’zbekiston va O’rta Osiyo xalqlarining umumiy tarixi chuqur o’rganilmagani adabiy taraqqiyot jarayonini har taraflama oydinlashtirish masalasini yanada qiyinlashtirardi. Chunki, adabiy hayotni tarixiy taraqqiyotdan uzib bo’lmaydi.

Bu kabi qiyinchiliklar va o'zbek adabiyotshunosligining yoshligiga qaramay klassik adabiyotni o'rganish sohasida jiddiy ishlar qilingan edi, deyish mumkin. Shunday ishlardan biri ushbu maqoladir. Maqolada Navoiyning asarlari nihooyatda samimiy va aniq ta'riflanadi. Maqola o'zining ilmiyligi bilan bugungi kun adabiyotshunosligi uchun ham katta ahamiyatga ega. Unda keltirilgan quyidagi jumla maqoladagi yetakchi g'oyani ifodalaydi:

“Butun umrini ona tilining tantanasi uchun bag'ishlagan Alisher Navoiy ham “Muhakamatul- lug'atayin ” asarida ehtirosi va mantiqi bilan fors tilining ustunligiga qattiq “til tegizgani” holda arab tili oldida “hurmat” saqlab, uning yuksak “samoviy” fazilatlarini ta'kidlab o'tadi.”¹³

Oybekning keyingi “Cheksiz umr” nomli maqolasi Navoiy tavalludining 505 yilligi munosabati bilan e'lon qilinadi. Maqolada aytilishicha, Navoiy o'z ijodiy dahosi bilan butun hayoti, kurash va faoliyati bilan nomini o'lmasladi. Navoiygacha erda insonning eng oily hissiyoti, burchi va uning insoniyligining asosiy o'lchovivatanga, xalqqa, bashariyatga xizmat va mehru vafo urug'ini ekmak, hayotni go'zallashtirmakdir. Navoiy o'z asarlarida har munosabat bilan takrorlagan “Yaxshi nom qoldirish” g'oyasi shudur. Yaxshi nom- o'limdan so'ng, ikkinchi va cheksiz umir”¹⁴dir.

Darhaqiqat, Oybekning bu fikri juda ham o'rinli dir. Navoiyning umri chindan ham abadiy umirdir. U besh asirki qadriyat misol yashab kelmoqda. Oybek o'zining ushbu “Cheksiz umir ”

¹³ Oybek asarlari o'n tomligining toqqizinchi tomi. T: “G'afur G'ulom”. 1974-yil. 125-bet.

¹⁴ Oybek.o'n tomligining to'qqizinchi tomi. T: G'afur G'ulom. 1974-yil 226-bet.

maqolasida Navoiy umrini abadiylashtirgan hislatlar haqida gapiradi. “Navoiy uchun ijodiyotdan murod- xalqqa, vatanga, kishilikka xizmatdir”, -deb ta’kidlaydi.

Oybek shoirni ona tilimiz kurashchisi, ilm, san’at va madaniyat homiysi ekanini isbot qilishga urunmaydi, balki haqiqatni ifoda etadi, xolos. Oybek maqola so’ngida bu buyuk ijodkorning g’arib va muqaddas qabrini unutmaslikka chaqiradi.

Maqolani o’qib turib shuni aytish mumkinki, Oybek uchun ham mashaqqatli ilmiy izlanishdan maqsad- xalqqa, vatanga, kishilikka xizmatdir. Uning barcha ilmiy va ijodiy izlanishlari vatanparvarlik, burch hislari bilan limmolimdir. Shunday ekan Oybekni ham “Cheksiz umir” sohiblari qatoriga hech ikkilanmay qo’shishimiz mumkin.

Oybekning keyingi “Buyuk gumanist”(1946-yil), “Ulug’ shoir va gumanist haqida” kabi maqolalarida ham yana bir bor Navoiy dahosini madh etadi. “Alisher Navoiy” nomli tadqiqotida esa Navoiy ijodiyotini yanada chuqurroq madh etadi, tadqiq qiladi. Bu tadqiqot Oybekning uzoq ilmiy izlanishlarining bir lavhasi sifatida maydonga keladi. U 3 qismdan iborat:

I qism Alisher Navoiyning hayot yo’liga bag’ishlangan. Navoiyning bolaligi, oilasi haqida ma’lumotlar berilgan. Shu bilan birga uning butun hayoti; davlat ishlaridagi faoliyati haqida qisqacha fikr yuritilgan.

II qismda Alisher Navoiy ijodiy merosining muhim qismi, lirikasi haqida qisqacha malumot berilgan. Oybek asosan “Devoni Foniy”,

“Xazoinul –maoni” (“Chor devon”) devonlarining buyukligi va go’zalligiga to’xtaladi.

III qismda esa Navoiyning buyuk “Xamsa” asari tadqiq qilinadi. “Hayratul-abror”, “Farhod va Shirin” dostonlaridagi o’ziga xoslik, joziba va hayratomuz yorqinligini zo’r iftixor bilan tavsif etadi.

II bob. Oybek badiiyatida Navoiy.

Alisher Navoiy Oybekning badiiyatida ham nihoyatda katta o’rin egallagan. Oybekning ko’plab badiiy asarlarining asosiy mavzusi ham Navoiydir. “Navoiy”, “Navoiy va Guli” lirik dostonlarida “Navoiy” romanida va “Bola Alisher” qissasi va boshqa asarlari orqali buning guvohi bo’limiz mumkin. Demak, adib Navoiyni chuqur o’rganib uning asarlarini, hayotini ilmiy jihatdan tadqiq qilish bilan birga badiiy asarlariga ham olib kirdi.

Oybek mutafakkir shoirning umr fasllarini izchil tasvir etishga, insoniy va ijodiy jahosini sanatkorona yoritilishida, betakror siymosini badiiy talqin etishda tarixiy haqiqatga asoslanadi. Shu bilan birga uning badiiyatiga nazar tashlar ekansiz tarixiy haqiqat bilan bir qatorda hayolot olamini ham naqadar keng ekanligini guvohi bo’lasiz.

Navoiy siymosi hamisha Oybek hayoti va ijodida alohida o’ringa ega bo’lgan. Buyuk shoirning asarlari bilan ilk bor tanishganda Oybekning bolalik qalbiga tushgan muhabbat urug’i yillar o’tgan

sayin, adibning poetik ijodi sayqal topgani sayin uni, kamolga yetib, ulg'ayib bordi.

Adib o'z tarjimai holida shunday yozadi: "O'z halqimning taqdiri haqida fikr yuritar ekanman, menda yangidan-yangi mavzular tug'ilardi. Yoshligimda asarlari bilan tanishgan ulug' o'zbek klassigi, buyuk, o'lmas Alisher Navoiy haqida yozishni ko'pdan orzu qilar edim. Ulug' gumanist obrazi o'rta asr tuni qorong'uligini yorituvchi yorug' mashal kabi mening xayolimni egallab oldi. Men "Navoiy" poemasini yozdim. Navoiy obrazi mening ko'pgina sherlarimda paydo bo'ldi va nihoyat 1942-yilda "Navoiy" romanini tamomladim. U birinchi marta 1944-yilda o'zbek tilida, 1945-yilda rus tilida bosidib chiqdi. Roman ustida ishlash jarayonida ulug' shoirning o'lmas asarlarini va uning davrini o'rganib Navoiy hayoti va ijodi haqida qator tarixiy-adabiy asarlar ham yozdim.

Bu asarlarim XIX asr oxiri XX asr boshi o'zbek klassigi Muqimiy, Hamza va boshqalarning ijodiga bag'ishlangan tekshirishlarim bilan mening 1943-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy azosi qilib saylanishim uchun asoso bo'ldi. 1946-yilda "Navoiy" romanim uchun Davlat mukofotiga sazovor bo'ldim".¹⁵

Muallifning bu gaplaridan ko'rinadiki Navoiy uning ijodida nihoyatda katta o'rinni egallagan.

Bundan besh yuz yil ilgari yashab o'tgan insonni bu qadar aniq va yaqqol "ko'rish" uchun uzoq yillar mobaynida tarixiy davrni, Navoiy hayoti va ijodini o'rganishning o'zigina kifoya qilmaydi.

¹⁵Adabiyotimiz avtobiografiyasi. Toshkent.: 1973-yil. 216-bet.

Buning uchun yana yozuvchi o'z qalbining "antennalari"ni o'sha davrga, muhitga, o'z xayolini zabt etgan o'sha siymoga sozlay olishi, uning nafasini tuyishi ham lozim. Shundagina olis asrlarda ro'y bergan voqyealarni g'ayritabiiy bir kuch-sanat yordamida Oybek singari yozuvchilar tufayli, bizning ko'z oldimizda butun jozibsi bilan gavdalanadi.

Navoiy Oybek nazdida, asl, pok, ulug' qalbli inson. XV asrdagi Xurosonnigina emas, balki butun o'zbek xalqi tarixini yoritib turuvchi daho. U o'z zamoni va zamondoshlaridan bir necha asrlarga ilg'orlab ketganvqa ularni, kelajak sari adolatli, marifatli, saodatli zamonlar sari yetaklagan siymo.

Muttasil izlanishda bo'lgan, xyolan tarix so'qmoqlarini "cho'tirga" aylantirib kechgan shoir jahonni lol etgan Navoiy kabi buyuk ijodkorlar faoliyatini alohida muhabbat bilan aks ettiruvchi dostonlarni yaratdi. "Navoiy", "Guli va Navoiy" singari tarixiy dostonlar o'z davrida adabiyotimizga salmoqli tuhfa bo'ldi. Ushbu janr taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shdi.¹⁶

"Bola Alisher" qissasi esa Navoiyning bolaligiga bag'ishlanadi. So'ngra "Navoiy" romani bu borada qilingan ishlarning eng yuksak cho'qqisi hisoblanadi.

Demak, Oybek Navoiyning butun hayotini izchil ravishda asarlarida aks ettiradi. Oybek keyinchalik Alisher Navoiy bilan ilk bor tanishi, asarlaridan baxramand bo'lganini eslab bunday yozgan: "Ko'nglim ravshan bo'lib ketadi, ramzlari, hikmatlari, pishiq, rangdor

¹⁶ Akbarali Sobirdinov. Oybek dostonlarining xususiyatlari. –Til va adabitot ta'limi. Toshkent – 2003 – yil. №3. 66 – 67- B

qoqiyalari go'yo ko'nglimga to'ladi. Baytlari ishqiy. Falsafiy, chuqur mazmunli.

- Navoiy g'azallari ishqiy, ammo Ollohning oshiqi, shu sababdankim, baytlari pok muhabbatni kuylaydi. O'qiy ber, borib-borib tushunasan, - dedi domlam."¹⁷

Haqiqatdan, Navoiy Oybekda, uning murg'ak qalbida pok sevgi yaratadi. Adib demak, yoshlikdan uning sherlarini zavq bilan, chuqur his bilan o'qigan. Pok muhabbatni, chuqur manoni, yoqimli hisni ilk dafa yoshligida eski maktabda zo'r qiziqish bilan o'rgangan buyuk daho, Navoiydan o'rgangan.

Alisher Navoiy va uning shariyati shu tarzda Oybek hayotiga kirib keladi.

Navoiy Oybek talqinida va tasvirida faqat temuriylar davrining buyuk mevasi emas, balki, ayni paytda o'zbek xalqiga xos manaviy yusalish va ijodiy zakovatning jonli timsoli hamdir.¹⁸

Shuning uchun ham u o'z hayotining turli davrlarida Navoiy siymosiga yangi-yangi nuqtalardan turib, yangi-yangi vazifalardan kelib chiqib, murojaat etadi. 1937-yil mayida Maskvada o'zbek adabiyoti va san'ati o'n kunligi bo'lib o'tgan. Boshqa yirik shoir va yozuvchilar singari Oybek ham o'zbek madaniyatining ana shu marakasida ishtirok etgan. Ammo, har qanday sharoitda ham ijodga birlamchi ahamiyat bergan Oybek tantanali kechalar va uchrashuvlarda qatnashish bilangina cheklanib qolmay, Maskvada "Navoiy" dostonini yozgan.

¹⁷ Adabiyotimiz avtobiografiyasi. T.: "Sharq" nashriyoti. 1973-yil. 126 - B.

¹⁸ Naim Karimov . "Bola Alisher" qissasi va uning muallifi haqida. Toshkent. "Cho'lpon" nashriyoti. 1994 - yil. 77- B.

Asrlarga eltib hayolni,
Bazan yorqin ko'raman cholni...

Dostonning bu debocha satrlarini o'qigan kitobxon o'sha kezlarda Navoiy siymosi Oybek xayolini doimo band etib, uni ijodga undaganini, dostonning shu tarzda dunyoga kelganini tasavvur etishi qiyin emas.

Bu doston qanchalik latif va go'zal bo'lmasin, baribir u "Navoiy" romanini yaratish yo'lidagi urinish edi. Navoiy va u yashagan davr haqidagi barcha tarixiy adabiyotlar bilan yaqindan tanish bo'lgan, "yursa – tursa hamisha Navoiyni o'ylagan", "uning manodor, aqlli ko'zlari, xufel, rahimdil, oliyjanob qiyofasi, asl pok, ulug' qalbini his etgan" adib romanni urushning dastlabki yillarida. Qish faslida sovuq xonada, jinchiroqning tiroq shulasida yozdi.

"Navoiy" romani o'zbek adabiyotining durdonalaridan biri sifatida har bir o'zbek xonadoniga kirib bordi, ko'pgina xorijiy tillarga tarjima etildi; mana 66 yildirki u hamon sevilib o'qib kelinadi.

Oybek o'zining bu buyuk asari haqidagi to'g'ri fikrlari "Navoiy romanini qanday yozdim" nomli maqolasida bildirib o'tadi:

"Taxminan 1936-1937-yillar kichik poema – "Navoiy"ni yozdim. Keyin 1942-yil buyuk polotnoga o'tib, "Navoiy" romanini yozdim. Buning uchun, albatta Navoiyning barcha asarlarini. Navoiy yashagan avrning tarixi, u davr jamiyatining xarakteri, urf-odati,

xulq-atvori bilan tanishishga to'g'ri keldi"¹⁹ – deydi adib. Bu mexnatlar evaziga “Navoiy” romani yaratildi va shuhrat qozondi.

Oybekning “Navoiy” romani o'zbek adabiyoti tarixida farqli o'rin tutadi. Yuzaki qaraganda , O'ybek urush yillarida uzoq o'tmish mazvusunda “Navoiy” zamonini yaratish bilan o'sha jangavor davr talablaridan uzoqlashganday ko'rinadi . Aslida esa bunday emas . Chunki ,Oybek o'tmish voqealarini ,voqeiligini aks ettirish ,buyuk tarixiy shaxsh Alisher Navoiy obrazini yaratish ,uning vatanga va xalqqa bo'lgan cheksiz muxabbatini tavsivlash asosida vatanparvarlik, insonparvarlik , qahramonlik va yomonlikka nafratni targ'ib qildiki ,urush davri talablariga to'la mos kelar edi.

“Navoiy” tarixiy-biografik zamon janrining nodir namunasi. Roman voqeasi o'ttizdan oshmagan bo'lsada yoshi ulug'lardek ko'rinadigan Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytishi bilan boshlanadi va Navoiy hayotining eng samarali va eng sermazmun davrini qamrab oladi .Asar voqeasi Navoiyning olamini aks ettirish bilan tugaydi. Demak, asarda Navoiy tarjimasi holining asosiy bosqichlari hayot haqiqatiga mos holda yorqin tasvirlangan . Asarda Navoiyning olijanob fazilatlari, ajoyib hislatlari ,vatan, xalq va adabiyot oldidagi buyuk xizmatlari birin-ketin ochila boradi . Navoiy obrazi zamonda el va xalq uchun qayg'iruvchi , yurtning baxt -saodati haqida jon kuydiruvchi , adolat va haqqoniyat uchun astoydil intiluvchi ulug' siymo sifatida namoyon bo'ladi .navoiy o'z

¹⁹Oybek. Navoiy romanini qanday yozdim. “Sharq yulduzi” jurnali. T.: 1960 - yil. 2- son.

do'stlariga nasihat qilib :”har nechuk falokatni daf etmoqga g’ayrat qilmoq kerak ...

Muborak vatanning ,el-ulusning salomatligi uchun fidokorlik ko’rsatmoq fazilatimizdir . sizdan tilagim shuki , bir-birimizga ,davlatga,

Yurtga vafo , sadoqat, muhabbat bog’lanay . Vafo va muxabbat – ulug’ qudratdir “,¹-deydi .

Oybek romanida buyuk shoir obrazini yaratishda Navoiyning turkiy til va adabiyotga bo’lgan munosabat tasviridan ham o’rinli foydalangan . Romanda haqqoniy tasvirlanganidek , Navoiy o’z ona tilisi – turkiyni dil-dilidan sevadi . Uning go’zal va boy til ekanligini inkor qiluvchilarga qarshi dadil kurashadi. O’zbek tilining boyligini amalda namoyish qiluvchi ajoyib badiiy asarlar yaratadi. Oybek romanda Alisher Navoiy boshqa tillarni hyech bir kamsitmaganini to’g’ri ta’kidlaydi. Romanda Navoiy shoir Binoiga e’tiroz bildirib: “Biz fors tilining qudrat va ahamiyatini, u tildagi asarlarning xusn va salobatini hyech vaqt inkor etmadik. To go’daklikda ham qalab surmoqdamiz. Ammo tilimizning afzalligi biz uchun ulug’ haqiqatdir. Biz go’daklikda bu haqiqatning ishqini ko’nglimizga jo qilganmiz, o’lganimizcha bu ishqni saqlaymiz!... biz elimizning zavqini, tal’atini nazarda tutib, uning o’z tilida qalam suraylikki, uning ko’ngli fikr gullari bilan to’lsin. Turkona so’z bilan tarannum etaylikki, elning yuragi mavjga kelsin. So’z gulshanidan o’zga ellar qatorida bizning elimiz ham baxramand bo’lsin” – deydi. Oybek romanda Jome bilan Navoiyni bir biriga ustoz va shogird ekanini maftun bo’lib tasvirlaydi. Ular o’rtasidagi oddiy insoniy munosabatlarni ham

samimiyat bilan ifodalangan. Navoiy Marvga jo'nash oldida xayrlashish niyatida Jome huzuriga tashrif buyuradi. Jome bilan bo'lgan suhbatdan ularning naqadar yaqin bo'lgan doxelar ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari "Navoiy" romanida Husayn Boyqaro, Xadichabegim, Mo'minmirzo, Darvishali, Binoiy, Majiddin singari tarixiy shaxslar obrazi ham berilgan. G'oyat ustalik bilan yaratilgan bu obzarlar bosh qahramon Navoiy harakterini ochishda muhim o'rin tutadilar. Chunki adib bu obrazlar vositasida o'sha davr hayotini xaqqoniy ko'rsatgan. Asarda podshoh Husayn Boyqaroning o'z o'g'li Badiiyuzzamonga qarshi jang qilishi, nabirasi Mo'minmirzoni qatl etish haqida farmon berishi, shahzodalarning bir-biriga qarshi qilich qayrashi, bir-biriga xiyonat qilishi singari fojeali voqyealar, ziddiyatlar g'oyat ta'sirli qilib ifodalangan. Romnda tarixiy shaxs obrazlari bilan birga, Sultonmurod, Dildor, Arslonqul, Zayniddin, To'g'onbek singari badiiy to'qima obrazlarning ham o'ziga xos munosib o'rni bor. Oybek bu obrazlar orqali o'sha davrdagi ma'lum ijtimoiy guruxlar hayotini umumlashtirib, ko'rsatib bergan. Shuningdek, bu obrazlar vositasida bosh qahramon Navoiy xarakterini, uning fazilatlarini yanada yorqinroq ochadi. "Navoiy" romanida XV asr hayoti uchun tipik bo'lgan xilma-xil voqyea-xodisalar aks ettirilgan, rang-barang obrazlar yaratilgan. Hayot xaqiqati ustalik bilan badiiy haqiqatga aylantirilgan. Bunda yozo'uvchi obraz yaratishda psixologik taxlildan, til imkoniyatlaridan, jumladan, har bir permonajning o'ziga

xos fe'l atvoridan va individual tilini berish sanatidan unumli foydalangan.²⁰

Asar tili o'tish davrining jonli tilini yaratish namunalaridan biri bo'lib qoldi. Unda besh yuz yil avval yashagan tarixiy qahramonlarning tili hozirgi kitobxonlarga tushunarli qilib qayta tiriltirildi.²¹

Oybekning ushbu romanida Navoiyning hayot yo'li o'sha davrdagi hayot va murakkab siyosiys voqyealar aks ettirilgan. Bu asar obrzlari haqida muallif shunday deydi: "Yozishdan avval men qahramonlarimni aniq – tayin ko'raman, ular, mening xayolimda, bir paytlar tarix shudgoriga tashlangan urug'dan o'yosib chiqqadday edilar."²²

Demak, Oybek Navoiy obrazini ham yaqqol o'rgan, anglagan. Bundan besh yuz yil ilgari yashagan insonni bunday aniq va yaqqol ko'rish uchun uzoq yillar mobaynidja tarxiy davrni, Navoiy va ijodini o'rganishning o'zigina kifoya qilmaydi. Buning uchun yozuvchi o'z nigohini o'sha davrga, muhitga, o'z xayolini zabt etgan o'sha siymoga qaratishi, uning naqasini tuyishi ham lozimdir.

Sirtan qaraganda "Navoiy" romanida ulug' shoirning tarjimai holi bafsl yoritilganday tuyiladi. Chindan ham romanda ko'rsatilishicha, 1463-yilning ko'klamida 1501-yilning yanvarigacha bo'lgan o'ttiz ikki yillik voqyealar qalamga olingan. Navoiy qizg'in madaniy – marifiy, ijtmoy – siyosiy faoliyatda tasvirlanadi. Donishand va tadbirkor Navoiy marhamatli va talabchan ustoz,

²⁰ S. Mirzayev "XX asr O'zbek adabiyoti tarixi. T, "Yangi avlod". 2005-yil. 216-217-B.

²¹ Homil Yoqubov. Oybek. Adabiy – tanqidiy ocherk. –T.,: 1959-yil. 154-155-B.

²² Safo Matjon, Sharofjon Sariyev. O'zbek adabiyoti. T., "Fan" nashriyoti. 2008 - yil. 240 - B.

madaniyat – marifat va obodonchilik ishlarining rahnamosi, insof, diyonat, adolat hiyomachisi, mamlakat va xadq osoyishtaligining posboni sifatida nomoyon bo'ldi. Mutafakkir shoir va olim sifatida Navoiy ichki imkoniyatlaridan unumli foydalanib davlat va idora usulida mustahkam tartib o'rnatish va ayrim islohotlar o'tkazish yo'lida jon kuydiradi. Nizo va adovatlarni bartaraf etishga urinadi. Qalbini ishonch va umid tark etmagan shoir toboro tanazzul botqog'iga botib borayotgan Husayn Boyqaro saltanatida kechayotgan voqyealar mantig'ini teran anglaydi. Jaholat iskanjasidagi yurt peshvolarining qilmishlaridan ranj-alam, itirob chekadi. Lekin, shuni ham unitmaslik kerakki Navoiy va Boyqaro o'rtasidagi keltirilgan ziddiyatlar asar yaratilgan davr talablari o'laroq tasvirlangan. Zero, bizga malumki, bu ikki inson bolalikdan to umrining ohirlarigacha qadrdon do'st bo'lishgan.

Romanda hayot sinovlarini matonat bilan yengib o'zligini anglagan qahramonlar holati jonli tasvirlanadi. Ular orasida Navoiy o'z erkinligi bilan alohida ajralib turadi. Navoiy siymosi orqali aqidalarida sobit, istiqbolga komil ishonch bilan boquvchi qudratli ruh egasining ezgulik yo'lidagi harakatlari kitobxon qalbiga dalda beribgina qolmay, yaratuvchilik va ijodkorlik ruhini ham tug'diradi. Romanda Navoiy fikran asarlarning, davrlarning manzarasiga nazr tashlab, hazing ohang ila ham so'zlaydi. Ana shu hazinlikda haqiqatning achchiq ta'mini, mamlakat tag'dirida boshlanajak muqarrar bo'running daragini tuyish mumkin.²³

²³ I. Yoqubov. "Oybek kashf etgan Navoiy". "Til va adabiyot ta'limi". T – 2010. №1 36-B.

Biroq Oybek romanga so`nggi nuqta qo`yar ekan, buyuk shoir haqidagi asarni g`amgin bir rux bilan yakunlashni istamaydi. O`z hayotidan mamnun, yuragida shodlik chayqalgan Naoviy holatini tasvrlab yozadi: “Shoir shamni o`chirdi, xassani qo`liga ollo, yotoq uyiga kirmoq uchun uvigan oyoqlari bilan asta-asta yurib, tashqari chiqdi. Cheksizlikdan muazzam ohang bilan oqqan yulduzlarning nafasi, bog`chadagi daraxtlarning shitirlashi yarim kechada ip yigirgan jafokash kampir charxining “g`uv-g`uvi”, uzoqda karvon tevalari qo`ng`irog`ining vazmin ohangi – barchasi shoirning ko`ngliga bir xilda yaqin, tanish, manodor tuyular, barchasini u chuqur sezar edi”.²⁴

Donishmand shoir shamining o`chishi hayotining ham nihoyasiga yaqinlashishi arafasida kechadi. Havoning toza va salqinligi, yuzlariga urilgan mayinligi, daraxtlar shiviriyu, koinotning muazzam ohanglariga uyg`un. “Jafokash kampir” qiyofasida ramzlantirilgan “falak charxi”ning tinimsiz “g`uv-g`uvi” muazzam tarix binosini yaratishga yohud kun-pofkun etishga ulksh qo`shgan ne-ne erlaru gunohga g`arq bo`lgan nokaslarning tarix yo`llarida “ulkan krvon” yanglig` o`tib ketganligi, vaqt atalmish oliy hakamning vazmin ohanglaridagi shafqatsiz hukmiga xos jarang beradi. O`zini tabiatning bir zarrasi deb bilgani bois ham ularning barchasi shoirning ko`ngliga yaqintanish manodor.

Navoiyning eski qadrdoni keksa bir shoir tilidan aytilganidek “jahongashta shamollar shoirning muqaddas oyoq izlaridan bo`sa oladilar”. Bu tasvir shoirning vafotidan iztirob va hhasrat chukkan

²⁴ Oybek. “Navoiy” roman. “Sharq” nashriyoti. T – 2009- yil. 431-432-B.

dillarda sezilgan o'lim sharpasini quvganday, hayotning o'tkinchiligi haqidagi iqrorlarni unuttirganday, mamlakat hayotidagi ruxsiz bo'shliqqa mano berganday o'ksiklik o'rnini usmidvorlik egallaganday taassurotlar uyg'otadi.²⁵ Aslida ham shunday. Oybekning: "ulug' qabrining ustida Hirot yig'ladi... Shoirning mootamini sher gullari bezadi"²⁶, - deb yozishi bejiz emas.

Oybek dahosining ulug' mutafakkirga bo'lgan tizginsiz muhabbatida darak beruvchi o'ziga xos haroratga yo'g'irilgan guldasta sifatida hanuz o'z qimmatini saqlab turubdi.

Oybek o'z romanini yaratar ekan, g'oyaviy va badiiy niyatiga ko'ra, ikki narsani chetlab o'tganini takidlab o'tish joiz. Birinchisi Navoiyning inson va shoir sifatidagi shakllanish bosqichini. (Navoiy romanida tayyor qahramon sifatida, el-yurt nazariga tushgan shoir sifatida kirib kelgan). Ikkinchisi – ulug' shoirning, Farhod va Shirinlar, Layli va Majnunlar siymosini yaratgan ijodkoning sevgisini (U o'z romanini tarix hujjatlari va zamondoshlar xotiralariga asoslangan holda yozgani uchun Navoiy hayotining bk nomalum va qorong'i sahifasiga nazar tashlashni munosib topmagan. Tarixiy manbalarda esa ulug' shoirning shaxsiy hayoti, sevgisi tarixi xususida biror malumot berilmagan).

Ana shu ikki masala tufayli Oybek so'nggi kunlarigaqadar o'zini kitobxon oldida qarzdor deb his qildi. So'nggi yillari yaqinlashgani sari shu ikki masala borasida o'z so'zini qoldirib ketishga oshiqdi. 1968-yil martida, vafotidan atiga uch oy oldin, o'zbek xalq afsonasi

²⁵. I. Yoqubov. "Oybek kashf etgan Navoiy". "Til va adabiyot ta'limi". T – 2010. №1 36-37- B.

²⁶. Oybek. "Navoiy" roman. "Sharq" nashriyoti. T – 2009- yil. 4339-B.

asosida “Guli va Navoiy” dostonini yozib tugalladi. Taxminan xuddi shu davrda u Navoiyning bolalik kezlari yorituvchi qissa ustida ish olibbordi. “Bola Alisher” birinchi marta to’la holda Oybek vafotidan keyin, 1974-yilda “Guliston” jurnalida “Alisherning yoshligi” nomi bilan chop etildi. Qissada to’rt yoshlik Alisherning bolalik kezlari tasvirlangan va uning adib hayotlik paytida elon qilingan parchasi “Bola Alisher” deb atalgani uchun shu nom bilan tiklandi.

Oybek bu qissasi orkli boshqa asarlarida ayta olmagan jihatlarni yorita oldi. Oybek o’shzining bu qissasida Navoiyning murg’ak bolaligiga bo’lgan muhabbatini ifoda etadi.

Qissani o’qib turib yuksak bilim egalarini hayoratga sola olgan yosh Alisherning zehniga, qobiliyatiga qoyil qolmay ilojiniigz yo’q. “... Alisher oyoqlarini yig’ib, darrov cho’kka tushdi va sof tiniq tovush bilan muloyim ohangda sher o’qib ketti:

Ko’kardi cham gulzorim qani?

Zihi sarvi bo’yluk nigorim qani?

Topibdur bu kun vasli gul andalib,

Darig’o, mening navbahorim qani?

... Qizarib ketgan Alisher bir ongina sukut qilgach, dedi: - Mavlono lutfiy hazratlari aytmişlar, bu sherni... Majlis ahli zavq, maroq to’lqinida ajoyib hayratda edi.”²⁷

Demak, Oybek Navoiyning har bir so’zi va xatti – harakatini buyuk dahoning bolaligiga hos tarzda tasvir etadi. Qissada, Navoiyning bolaligi ko’z oldimizda gavdalanar ekan, beihhtiyor Oybekning ham bolalik chog’larini hayolimizdan o’tkazamiz. Bu ikki

²⁷ Oybek. “Bola Alisher” qissa. “Cho’lpon” nashriyoti. 1995-yil.7-B.

insonning murg'ak bolalaigidagi do'stona kayfiyatni ilg'ashimiz mumkin. Quyidagi parcha orqali har ikkala yosh qalbidagi pokiza hayajonni sezish qiyin emas: "Alisher yangi taxtachani qo'ltig'iga mahkam qistirgan, shod va mag'rur, uch qadamcha ilgarilagan holda otasining oldida borur edi. Onasi ixlos bilan cho'miltirib, pokiza kiyintirgan. Oppoq salla, mullayoqa ko'ylak ustidan yengil adras to'n kiygan, oyoqlarida etik. G'iyosiddinbek ham soddagina, kamtar kiyingan. Ustida uzun yaktak, katta salla, oyog'ida mahsi-kafish, katta dasturhonga tugulgan bir talay non va qatlamani ko'tarib borar edi. U ham shod, ruhi ko'tarinki. Bolasining salohiyatiga shubhasi yo'q, iymoni komil.

Ular guzardan o'tib, o'ngga burulganlarida maktab ko'rindi. Alisherning hayajoni tobora oshar edi."²⁸

Demak, Oybek Alisherning bolaligini tasvirlar ekan, xamisha bolalarcha u bilan birga, hamfikir bo'ldi. Barcha yosh kitobxonlarga Alisherdek ajoyib do'stni tanishtirdi. Mana necha yildirki barcha yosh kitobxonlar bola Alisherni o'z do'stlaridek bilib kelmoqdalar.

Oybek butun umri davomida Naoiyni – ulug' shoirni o'ziga pir deb, tarix so'qmoqlari osha uning mu'tabar izlarini qidirdi. Uning hayotini bolalik chog'laridan to umrining so'nggi damlariga qadar ko'z oldimizda tiklab, o'z dostonlari, romani va qissasini yaratdi. Oybek yaratgan bu Navoiynoma uning avlodlariga qoldirga badiiy vasiyatidir.

²⁸O'sha kitob. 44 - B .

Xulosa.

Insonyat tarixida shunday parloq siymolar borki , ular to`risida ilmiy-adabiy asarlar yozish baxti har kimga ham nasib etavermaydi.

Mana Shunday buyuklardan biri Alisher Navoiydan keyin kechgan besh asr ichida buyuk o`zbek shoyiri haqida Oybekdek asarlar yozish huquqini qozangan boshqa birorta yozuvch bo`lmasa kerak . Ehtimol, parvardigor Navoiyni - bu buyuk dahoni oradan besh yuz o`tgach, yangidan kashf etib, o`zbek xalqiga va umumjahon madaniyatiga barhayot insondek qaytarish uchun Oybekni yaratgandir.

Oybek singari komil insonlar haqida „tug`ildi” so`zini qo`llash ularni inson va ijotkor sifstida to`la anglamaslik, zero, bunday nurli siymolarni parvardigor o`zining xush soatlarida ijod qiladi, yaratadi. Navoiy va Oybek...Bu ikki insonni besh asirlik davr daryosi bir-biridan ajratib turadi. Lekin Oybek umr bo`yi davom etgan ijodiy mehnati tufayli u bilan yonma-yon turish, u sochgan nurlarni o`iziga yig`ib – jamlab, so`ng aks ettirish bahtiga musharraf bo`lgan. Oybek butun umiri dovomida ana shu besh asirlik daryoni suzib o`tib Navoiy yashagan sohilga yaqinlashib brogan. Odatda ana shu besh asirlik daryoni suzib o`tgan sizuvch, tog` kezar.O`zining mashaqqatli yo`lini yaqin cho`qqilarini zabt etishdan boshlaydi.Xuddi shunga o`xshash yozuvchi hom yo`lini tanlash kishilar, qadirdon joylar va o`zi guvoh bo`lgan voqialarni tasvir etish bilan adabiyotga kirib keladi. Oybek adabiyot maydonida tetapoya qilgan kezlarida Navoiy cho`qqisi qalin qor qatlamlari orasidan maftunkor qirlarni qatlamlari

bugungiday ko`rsatmas, quyosh ham bu cho`qqining gavhar toshlariga urilib harir nurlarni o`zgach bir joziba bilan qaratmas edi, lekin o`sha vaqtdayoq Oybek bu cho`qqi sari asta sekin, ammo aniq maqsad bilan yaqinlashib bordi, undan turli davrlar va mafkuralar qoldirgan qor qatlamlarni kurab tashlab, uning muazzam bo`y bastini parlatib yubordi. Navoiy va uning ijodini o`rganish bugun kimlargadur Oybekka qadar boshlangan yumush bo`lib ko`rinish mumkun. Darhaqiqt ustoz Oybekka qadar ham mumtoz Navoiy asarlardan soboq olib, uning ijodiy “sir” lariga oshno bo`lishgan intillgan Navoiyxonlar ulug` shoir asarlarida mehri tuyub, ular mag`zini chaqmoqchi bo`lganlar va shunda bir olam zavq - shavq olganlar. XX asrning 20- yillariga kelib esa Navoiy yashagan davrni Navoiy hayotini va ijodini ilmiy asosida o`rganish ishlari boshlandi. Shu davrda ko`pchilik Navoiy haqida dastlabki maqolalarini yozdilar. Ko`p o`tmay dastlabki, oz sonli navoiyshunoslar safiga Oybek ham kirib keldi va navoiyshunoslik u tufayli o`zbek fani va madaniyatining mo`tabar bir sohasiga aylandi. Oybek ilk bor Navoiy nomini eski maktabda eshitdi. Shunda Navoiy she`ryati gulshanidan esgan ifor butun umurga uning dimog`ida qoldi. So`ng, ulug`lagani sari, bu saehirli olamning, quyosh gallaktikasi singari, turli rangdagi sayyoralardan iborat ekanligini sezdi va bu har bir “sayyora”ni alohida-kashf etish, shundan keyingina ularni o`zoro alohida o`rganish kerakligini tushundi. Nihoyat, bu „gallaktikani” yaratgan va idora qilayotgan dahoning hayotini va u yashagan davrni o`ranishga kirishdi. Oybek Navoiyni o`rganish borasida juda katta ilmiy izlanishlar olib bordi.

“Navoiy haqida” nomli maqolasida Navoiy yashagan davr va uning Navoiy ijodiga boʻlgan taʼsiri, uning hayot yoʻli, faoliyati va oʻz davrida tutgan oʻrni haqida toʻhtalib oʻtgan. Maqolaning “Gʻazaliyoti” qismida esa Navoiy poeziyasining naqadar katta mahorati va taʼsir kuchi ishqiy gʻazallari misolida koʻrsatib berilgan.

“Navoiyning tarjimai holi” maqolasida esa adib shoirning hayot uoʻlini toʻlaroq yoritishda intildi “Xamsa”ning asosiy obrazlari” maqolasida Oybek oldin yaratilgan obralardan farqli oʻlaroq Navoiy yaratdan obrazlarning oʻziga xosligi va alohida hususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turishini isbot qilish bilan birga ijobiy va salbiy obrazlarga alohida tavsif beradi. “Navoiyning dunyoqarashi masalasiga doir” nomli tadqiqotida Navoiy dunyoqarashi Spinoza taʼlimoti bilan solishtirilib goʻzal tarzda yoritilgan boʻlsa, “Navoiyning Majolisun- nafaʼis” asari haqida” nomli maqolasida esa ushbu tazkiraning tuzilishi, tazkirachilikdagi oʻrni va bugungi kundagi ahamiyati haqida gapiriladi.

Navoiy gʻazallari fikr boyligi, xayol rangdorligi, kechinma va hislarning samimiligi hayotga keng rindona qarashlari aks etgan yuksak adabiy merosi haqida “Navoiyning dunyoqarashi masalasiga doir” nomli maqolasida fikr yuritiladi.

Oybek shu kabi koʻplab maqola va tadqiqotlari orqali Navoiyni har jihatdan “kashf eta oldi”.Oybek Navoiyni ilmiy jihatdan”kashf etib” omi xalq qalbiga yetkaza olmasligini chuqur anglagan holda Nqvoiyni oʻz badiyatiga olib kirdi va ijodiy niyatining maksimal choʻqqisiga yetdi.

Bu mushkul vazifani Oybek shu qadar mahorat bilan uddaladiki natijada Navoiy butun bo`y basti bilan xalq oldida namoyon bo`ldi.

Adib Navoiyning umur fasillarini o`z asarlarida to`liq aks ettirdi .

“Bola Alisher” qissasida Navoiyning bolaligi yoritilgan bo`lsa, muhabbat yoshi “Guli va Navoiy” ostonida, o`rta yoshlari “Navoiy” romanida va umirining so`ngi yillari “Navoiy” dostonida o`z aksini topdi. Demak, Oybek Navoiyni nafaqat ilmiy jihatdan o`rgandi, balki Navoiy obraizini butun jahon adabiyotidagi buyuk siymolar qatorga kirdi.

Hozir Oybekning uy-muzayida “Navoiy haqidagi ilmiy ishlarga tayyorgarlik”, “Sharq hayoti va adabiyotiga oid tadqiqotlar ustidagi ish” deb sarlavhalangan bir nech daftar saqlanadi. Agar bu daftarlarni varaqlasangiz, yosh Oybekning “Zafarnoma”(Yazdiy), Rashahot ayn ul –hayot”(Koshifiy), “Nuzhat ul-qulub”(G`aznaviy), “Matlab ut-tolibin”(Muhammad Tolib) singari adabiy-badiiy va esse tarizidagi asarlardan tortib, ibn Batuta, Kilavixo, Abdurazzoq Samarqandiy, Vosifiy kabi olim va sayyohlarning ilmiy-tarixiy asarlari va kundaliklariga qadar bo`gan ulkan adabiyatni sinchkovlik bilan o`rganganligiga ishonch hosil qilamiz.

Ana shu manbalardan musqolab berilgan katta va kicchik ma'lumotlar o`zoro birlashib,uning shuuriga,xayolida Navoiy siymosini yaratdi, bu siymoni qurshagan tarixiy muhit ham Oybekning ko`z o`ngida haqiqiy va jonli qirralar kasb etadi.

Adabiy shu tarizda tirik Navoiyni yorqin tasavvur qiladigan,uning Xirof bo`ylab do`stlari qur`sho`vida harakat

etayotganligini „Ko`radigan”, goh mayn, goh qahirli ammo hamisha solobatli ovozini „eshitadigan” bo`ldi.

Oyibekning ijodiy niyatida jaholotga qarshi ma`rifat bilan kurashgan Navoiy siymosiy orqali badiiy adabiyot sehrini ko`rsatish fikri xalq tag`diri haqidagi haq teran mushohadakorlikning natijasi o`laroq tug`ilgan.

Oyibek badiiyatida Navoiy shu qadar teran aks etiriladiki, bu asarlar dunyoga keng tarqaldi. “Navoiy” romani bu badiiyatning yuqori cho`qqisi bo`lib o`z vaqtida qozoq, turkman, slavak, fransus, ukirayin, estonl, latish, cheh, rus va boshqa ko`plab tillarga tarjima qilinib jahon bo`ylab keng tarqaldi.

“Navoiy” romanini yaratishdagi Oybek tajribasi shuni ko`rsatadiki, totalitar mafkuraning tayziqlari faqat zamonaviy mavzuda yaratilgan asarlarning hayot haqiqatini to`la ko`satishdan cheklangangina emas balki tarixiy mavzularda yozilgan asarlarda ham to`la haqiqatni yoritishga izn bermagan. Shu boisdan endilikda adib va shoirlarimiz tomonidan qayta o`rganilib yangi-yangi tarixiy asarlar bitilayotgani sir emas. Biroq asarlar qay darajada yangilanmasin , Navoiy o`brizini yaratishdagi Oybek qo`ygan ilk qadam hech vaqt qimmatni yo`qotmaydi. Uni qo`lga olgan har bir kitobxon adibning kashfiyotlaridan voqif bo`ladi. Tarixiy haqiqatni ochib berish san`atiga tasannolar aytadi. Shu tarizda asar XX asirda yaratilgan o`zbek adabiyotining durdonalaridan biri bo`lib qoladi.²⁹

Oybek ana shunday buyuk tarixiy shaxs o`brazini yaratishni o`ziga maqsad qilib oldi va bunga shak-shubhasiz erishdi.

²⁹ Matyoqub Qo`shjonov. “Ko`ngilda qolib ketgan gaplar”. Toshkent. “Ma`naviyat” 2006-yil.

1941-yilda nishonlanishi mo`ljallangan Navoiyning 500 yillik yubileyi urush tufayli yetti yilga kechiktirildi.

1948-yilda, nishonlanishi mo`ljallangan bu qullug` sana o`zbek xalqining milliy bayrami sifatida tarixda birinchi marta nishonlanganida yubileyning katta, zalvorli yuki Oybekning zimmasiga tushdi. U ulug` salafiga bo`lgan hurmat va muhabbatini yana bir karra go`zal shakilda ifoda qildi.

50-yillarning o`rtalariga kelib, mustabit stalinning vafotidan keyin Sovet jamiyatida yangi hayot shabadalari esa boshladi. Bu hali istiqlol shabadasi emas, balki kommunistlar bunyod etgan jamiyatda turib ham erkin yashash, erkin ijod etish mumkin degan umidning, orzuning muattar shabadalari edi. Shu shabadadan hushnud bo`lgan Oybek yana XV asrga qanot qoqib uchdi. Yana tarixiy asarlar titishga kirishdi. U o`zidagi ana shu zavqbahsh va latif holatni bir ruboisida tasvirlab, shunday yozadi:

Tarix so`qmoqlari izimdan cho`tir.

Har bir xok shivirlar; “Bir lahza o`tir!”

“Qushlar tili” piri-yurakda tilak

Izlayman marvarit-qo`limda elak.

Oybekning 60-yillarda, qo`lda elak bilan, tarix so`qmoqlari bo`ylab qilgan “kezindi”larining samarasi sifatida “Bola Alisher” qissasi hamda “Guli va Navoiy” dostoni maydonga keldi. 30-40-yillarda yozilgan maqolalardan tarkib topgan “Navoiy Gulshani” va “Alisher Navoiy” (rus tilida A.I.Dech bilan hamkorlikda) kitoblari chop etildi.

Agar 1968-yilda o`limning sovuq qo`llari Oybekni o`z bag`riga tortmaganida, u Amir Temur va Bobur haqidagi ikki dostonni tugatib, yurak qatlarida yotgan azaliy orzusi “Amir Temur” romanini yozishga kirishgan bo`lar edi.

Afsuski, ulug` ijodkorga ajratilgan umir bu hayirli niyatlarni ro`yobga chiqishiga imkon bermadi.

Har bir yozuvchi qalbidagi armon bu.

Xullas, Navoiy bugun o`zbek xalqi uchun milliy iftihar manbayiga, adabiy, madaniy va ma`rifiy kamolot timsoliga aylangan, xalqimiz ulug` bobokalonining bebaho merosiga oshno bo`lib, uning nomini sevib e`zozlar ekan, bunda ijodkor, navoiyshunoslarimiz orasida birinchi navbatda mavlono Oybekning xizmatlari beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.Karimov “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”.Toshkent: “Ma`naviyat”.2008-yil.
2. I. Kaeimiv “Adabiyotga e`tibor – ma`naviyatga, kelajakka e`tabor.” Tafakkur jurnali. 2009-yil. 3-son.
3. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir/ I.A. Karimov-Toshkent: “O`zbekiston”,2010.- 80B .
4. Oybek . Navoiy romani “Sharq” nashryoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi / “Asir oshgan asarlar” turkumi // Tahrir hay`ati : O.Yunusov va boshq. /.-T.: 2009- 476B.
5. Bola Alisher qissa /. “Cho`lpon ” nashriyoti. Oybek. Toshkent 1995-y.
6. Oybek. Tanlangan asarlar XIII tom. O`zbekiston “Fan” nashriyoti. Toshkent-1976-yil.
7. Oybek asarlari o`n tomligining IX tomi. Toshkent. “Fan”.1974-y.
8. Zarifa Saidnosirova “Oybegim mening”. “Sharq”; T.:2009-yil 320B.
9. Ko`ngilda qolib ketdan gaplar: Maqolalar./ Matyoqub Qo`shjonov ; - T.: Ma`naviyat, 2006.-48B.
10. Alisher Navoiy “Mukammal asarlar ”to`plami. I-IV tomlar. Toshkent “Fan” , 1997-2000-yil.
11. Matyoqub Qo`shjonov “Oybek mahorati ” monografiyasi. T.:1965-yil.
12. Homil Yoqubov “Oybek haqida monografiya” T: “O`zadabiynashir”.1959-yil.
13. Naim Karimov “Oybekning shox asari” . “Navoiy” romani “Sharq ” nashriyoti.T: 2009-yil.
14. Matyoqub Qo`shjonov “Oybek romanlarida syujet va xarakter”.T: “Sharq yulduzi” jurnali. 1957-yil 12-son.
15. Homil Yoqubov “Adibning mahorati” .T:1959-yil.
16. Matyoqub Qo`shjonov “Oybek” Toshkent: 1976-yil
17. Saydulla Mirzayev “XX asr o`zbek adabiyoti” T: “Yangi asr avlodi” 2005-yil.
18. Adabiyotimiz avtobiografiyasi. T: 1973-yil.
19. Yoqubjon Homil. Oybek. Adabiy tanqidiy ocherk. T: O`zadabiynashr.1959-yil.

20. Usmonjon Qosimov “O`zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixidan lavhalar” T: “Iqtisod-moliya” 2006-yil.
21. Safo Matjon, Sharofjon Soriyev “ O`zbek adabiyoti”, Toshkent. “Yurist –mediya markazi” 2008-yil.
22. I. Yoqubov “ Oybek kashf etgan Navoiy” – Til va Adabiyot ta`limi jurnal. T:2010-yil 1-son.
23. Akbarali Sobirdinov . Oybek dostonlarining xususiyatlari.- Til va Adabiyot ta`limi. Jurnal. T: 2010-yil. 3-son.
24. Anqaboy Quljonov “Im va ijod olamida” .T: G`ofur G`ulom nomidagi adabiyot va sa`nat nashriyoti.1980-yil.

A.Qodiriy nomidagi JDPI o`zbek filologiyasi
fakulteti IV bosqich 405-guruh bitiruvchisi
Ergasheva Shahnozaning “Oybek ijodida Navoiy
mavzusi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

Taqriz.

Bitiruvchi talaba Ergasheva Shahnoza o`zining ilmiy izlanishlariga g`oyatda qiziqarli va dolzarb mavzu tanlagan, deb o`ylayman. Chunki, bugungi adabiyotshunosligimizdagi umuminsoniy, umumbaxsh tamoyillardan biri shundaki, ko`p asrlik mumtoz adabiyotimizga yaxlit bir jarayon sifatida qarash va uning barcha muhim jihatlarini holisona tahlil etish ustuvor jihatga aylanayotir.

BMI kirish va xulosa qisimlardan tashqari ikki asosiy bobdan iborat.

I bob “Oybek – navoiyshunos olim” deb nomlanib unda talaba “Navoiy haqida”, “Navoiyning tarjimai holi”, “Xamsaning asosiy obrazlari”, “Cheksiz umr”, “Alisher Navoiy” kabi maqolalarida Navoiy dahosining mohirona yoritilishini ko`rsatib bergan.

II bob “Oybek badiiyatida Navoiy” deb nomlanib, unda Navoiyning insoniy va ijodiy timsolining badiiy talqini “Navoiy”, “Guli va Navoiy” dostonlari, “Navoiy” romani, “Bola Alisher” qissasi orqali Oybekona ruhda yoritilgani aks ettirilgan. Bunda Oybek Navoiyni qayta kashf etgan adib sifatida baholanadi.

Adibning Navoiy merosiga doir ilmiy izlanishlarini aks ettiruvchi qo`lyozmalarining hamda Oybekning ijodiy jamoasidagi rasimlaridan keltirilgan.

Ishda ayrim imloviy, uslubiy xatoliklar uchraydi. Bu ishning umumiy saviyasiga ta`sir etmaydigan juziy kamchiliklar. Ularni talaba osonlik bilan bartaraf etadi.

BMI DAK talablari darajasida tayyorlangan. Ishni ijobiy baholash mumkin, degan fikrdaman.

Taqrizchi: _____ o`qituvchi, I. Mo`minov.